

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI XALQ TA'LIMI
BOSHQARMASI**

ADABIYOT

6-sinf

SAVOL-JAVOBLAR

TO'PLAMI

2016 - yil

Ushbu savol-javob to'plami maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kolleji talabalari hamda mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: X. Parpiyeva. - 16-sonli DIMI ning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Taqrizchi: O.Akbarov- N.V.P.K.Q.T.V.M.O.I. ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi -

Ushbu qo'llanma Pop tuman XTMFMTTE metodik kengashining 13 oktabr 2015-yildagi №8/1-sonli qarori bilan tasdiqlanib, foydalanishga tavsiya etildi.

Ushbu qo'llanma Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi metodika kengashining «___»_____ 2016 yildagi №___-sonli qarori bilan tasdiqlanib foydalanishga tavsiya etildi.

Namangan viloyati Pop tumani 16-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o`qituvchi Xurshida Parpiyevaning 6-sinf adabiyot darsligi asosida tuzgan savol-javoblar to`plamiga

TAQRIZ

Ma'lumki, hozirgi kunda o'sib kelayotgan va kamol topayotgan yosh avlodning yangilik sari intilishi taraqqiyotga, qolaversa, o'qituvchilarimizning o'z ustilarida ishlashlariga olib kelmoqda. Zamonaviy o'qituvchi doimo o'z davridan ancha oldinni ko'ra bilishi, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda jamiyat talablari yo'nalishini anglamog'i lozim.

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Xurshida Parpiyeva o'z tajriba va bilimlariga tayangan holda 6-sinf adabiyot darsligi asosida savol-javoblar to'plami tuzgan. Barchamizga ma'lumki, adabiyot darslarida shoir va yozuvchilarning hayot yo'li va ularning asarlaridan parchalar berilgan. Har bir o'quvchi shoir va yozuvchining hayot yo'li haqidagi nazariy ma'lumotlarni bilishi, sanalarni yod olishi lozim. Bu borada ushbu savol-javob to'plami o'quvchilarga qo'l keladi. Shuningdek, o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashda, kerakli ma'lumotlarni tez va oson o'zlashtirishlarida yordam beradi.

Ushbu savol-javob to'plamidan ona tili va adabiyot o'qituvchilari adabiyot darslarini o'tish jarayonida foydalanishlari mumkin.

N.V.P.K.Q.T.V.M.O.I. o'qituvchisi:

O. Akbarov.

Mundarija:

1. Ma`naviyat xazinasini	1
2. G`afur G`ulom.....	1
3. Qissa haqida tushuncha	3
4. Turob To`la	4
5. Xudoyberdi To`xtaboyev	6
6. Sarguzasht asar haqida	7
7. Janni Rodari	8
8. Muqimiy	10
9. Hajviy asar haqida tushuncha	12
10. Hamid Olimjon	13
11. Abdulla Qahhor	14
12. Badiiy asar tili haqida	16
13. Odil Yoqubov	17
14. Erkin Vohidov	18
15. Qasida haqida tushuncha	20
16. O`tkir Hoshimov	20
17. Said Ahmad	22
18. Badiiy asarda kulgi	23
19. Musa Jalil	24
20. Xalq qo`shiqdari	25
21. Alisher Navoiy	26
22. Muhammad Sharif Gulxaniy	28
23. Masal haqida tushuncha	30
24. Avaz O`tar	31
25. Abay	32
26. Zulfiya	34
27. Pirmqul Qodirov	35
28. Tog`ay Murod	37
29. Ibroyim Yusupov	40

MA'NAVIYAT XAZINASI

1. "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli narsa borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta". Ushbu adabiyot haqidagi fikr kimga tegishli?

J: I.A. Karimov

2. "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir". Ushbu ta'rif kim haqida?

J: Alisher Navoiy

3. Kitob orqali, adabiy asarlarni o'qib-o'rganish tufayli orttirilgan bebaho boylik nima?

J: Ma'naviyat va ma'rifat

4. Adabiyot so'zi qaysi so'zdan olingan?

J: Odob

5. Sharq mamlakatlarida adabiyotga qanday manba sifatida qaralgan?

J: Insonni odob va axloqqa yo'naltiruvchi manba

6. Adabiyotni anglagan millat nimani angelaydi?

J: O'zligini

7. "Adabiyot yashasa- millat yashaydi". Ushbu fikrlar kimga tegishli?

J: Cho'lpon

8. "Adabiyot- atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak". Yuqoridagi fikr muallifi kim?

J: Abdulla Qahhor

G'AFUR G'ULOM

1. G'afur G'ulom nechanchi yillarda yashagan?

J: 1903-1966-yillar

2. Birinchi jahon urushi nechanchi yillarda bo'lgan?

J: 1914-1918-yillar

3. G'afur G'ulom o'tmish hodisalarini xayolida gavdalantirgan holda qaysi asarini yozadi?

J: "Shum bola" qissasi

4. "Shum bola" qissasi qachon yozilgan?

J: 1936-yil

5. Yozuvchi ushbu asarni qachon mukammal holiga keltiradi?

J: 1960-yil

6. "Shum bola" qissasidagi katta yer egasi kim?

J: Sariboy

7. Sariboy ismiga qaysi nom qo'shib aytilar edi?

J: Bo'lis

8. Shum bolaning haqiqiy ismi nima?

J: Qoravoy

9. Shum bola kimning xizmatiga kiradi?

J: Sariboyning

10. Shum bola Sariboyning xizmatiga kirganda unga xizmat haqi sifatida nima beriladigan bo'ldi?

J: Xom-pishiq aralash ikki pud o'n yetti qadoqdan olma

11. Shum bolaning qanday aybi bor edi?

J: Yolg'on gapirish

12. Sariboyning qanday yomon odati bor edi?

J: Bo'lar - bo'lmas gapga "inneykeyin" deb so'rash.

13. Sariboy kim bilan qimor o'ynab, uning mevazorlarini, qo'rg'onini yutib oladi?

J: Yusuf kontor

14. Olmalar pishgan paytda Sariboy qayerda edi?

J: Kalasdagi shinam bog'da

15. Boyning oldiga borish uchun chek tashlanganda chek kimga tushdi?

J: Shum bolaga

16. Shum bolaning yolg'oni nimadan boshlanadi?

J: Dandon sopli pichoqning sinishidan

17. Qaysi yolg'ondan so'ng boy choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yorib, soqolini yulib, dodlab, yig'lay boshlaydi?

**J: Kenjatoy o'g'li
Bo'riboyvachchanning terakdan yiqilib o'lganini eshitgandan so'ng.**

18. Qaysi gapidan so'ng boy hushidan ketib yiqiladi?

J: Turmushga chiqmagan o'rtancha qizi Adolning o'g'il ko'rgani va o'g'li Badal aravakashga o'xshaganini eshitganda

19. Shum bolaning barcha gaplari yolg'onligini bilishgandan so'ng uni qanday jazolashadi?

J: 20 qamchi bilan jazolashadi

20. Shum bola boyning uyida qancha vaqt ishlagan edi?

J: 1 oy 19 kun

21. Shum bola haqini talab qilganda unga nima berishadi?

J: Shu paytgacha bergan 22 tiyin choychaqa va qurt tushgan, sasigan olmalardan ikki pud olma

22. Shum bola olmalarni qaysi bozorda sotadi?

J: Sariog'och bozorida

23. Olmalarni qanchaga sotadi?

J: 6 tanga 1 miri

24. Shum bola qo'y bozorida kimni uchratadi?

J: Omonni

25. Omon kimning qo'lida ishlar edi?

J: Toshkentlik qo'ychi boylar

26. Omonning bozorda nechta qo'yi sotilmay qoladi?

J: 73 ta

27. Sotilmay qolgan qo'ylarni qaysi bozorga olib borishadi?

J: Ko'kterak

28. Omon bilan Shum bola yo'lda ketishayotganda nimani orzu qilishadi?

J: Poezdga chiqib, uzoq joylarga borishni.

29. Shum bola poezda qaysi shaharlarga borishni orzu qiladi?

J: Qovunchiga, Turkistonga, Chinozga, Maskopga

30. "Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r" maqoli nimaga nisbatan ishlatiladi?

J: Bir falokat ko'pchilikning boshiga yog'lsa ham, u har kimga har xil ta'sir qiladi- "yog'on cho'ziladi, ingichka uziladi" deganidir.

31. "Shum bola" asarining qahramoni necha yoshda edi?

J: 14 yosh

37. Shum bola nima uchun uyidan chiqib ketadi?

J: Onasini hafa qilib qo'ygani va biror mehnat qilib pul topib kelish uchun

38. U Toshkent atrofidagi qishloqlarda qancha vaqt kezadi?

J: Yarim yildan ortiq

39. Shum bola kimning avaylab boqayotgan qushlariga qatiq, suzma berib o'ldirib qo'yadi?

J: Pochhasining

40. Omonga qo'shilib qaysi o'g'ri boshchiligadagi o'g'rilar bilan tunni o'tkazadi?

J: Sulton

41. Imomning og'ilxonasidagi o'sallab qolgan ho'kiz o'rniga nimani so'yib qo'yadi?

J: Eshakni

42. "Shum bola" qissasidagi har gapida xudoni tilga oladigan, ikkiyuzlamachi obraz kim?

J: Eshon

43. O'zini xudojoy sanab, aslida shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand-bangilar yig'iladigan takyaxonaga aylantirgan obraz kim?

J: Hoji bobo

44. "Shum bola" asaridagi qaysi voqea Sharq xalqlari og'zaki ijod namunalari- ertaklarni ijodiy qayta ishlash mahsuli hisoblanadi?

J: Sariboyni mot qilishi

35. "Shum bola" qissasida qaysi badiiy tasvir vositasidan unumli foydalanilgan?

J: O'xshatish

QISSA HAQIDA TUSHUNCHA

1. Badiiy asarlar nechta katta guruhga bo'linadi?

J: 3 ta

2. Ular qaysilar?

J: Epik, lirik, dramatik

3. Epik asarlar, asosan, qanday yo'l bilan yoziladi?

J: Sochma-nasriy yo'l

4. Epik asarlar nimasiga ko'ra kichik, o'rta, katta epik asarlarga bo'linadi?

J: Hayot hodisalarini qamrab olishiga ko'ra.

5. Kichik epik janrlarga qaysilar kiradi?

J: Latifa, masal, hikoya, rivoyat, ertak, afsona, badiia, etud, ocherk, esse.

6. O'rta epik janrga nimalar kiradi?

J: Qissa (povest)

7. Katta epik janrlarga qaysilar kiradi?

J: Epos, epik doston, roman, epopeya

TUROB TO'LA

1. Turob To'la qachon tug'ilgan?

J: 1918-yil 24-dekabrda

2. Turob to'la qayerda tug'ilgan?

J: Janubiy Qozog'iston viloyatining Turbat qishlog'ida

3. Nima uchun bolalar uyida ta'lim-tarbiya oladi?

J: Ota-onasidan erta ayrilgani uchun

4. 1934–1938 - yillarda qayerda o'qiydi?

J: Toshkent teatr bilim yurtida

5. Toshkent pedagogika instituti til va adabiyot fakultetining kechki bo'limida qaysi yillari o'qiydi?

J: 1938-1941-yillar

6. Turob To'la ijodiy faoliyatini qachondan boshlagan?

J: 15-16-yoshidan

7. Uning dastlabki to'plami qanday nomlanadi?

J: "She'rlar"

8. Turob To'laning dastlabki she'riy to'plami qachon chop etilgan?

J: 1939-yil

9. Ikkinchi jahon urushi yillarida shoirning qaysi to'plamlari e'lon qilindi?

J: "Shodligim", "Tabassum"

10. Urushdan keyin qaysi she'r va doston to'plamlari chop etildi?

J: "Muborakobod", "Bolalar dostoni", "Qanotlan qo'shiqlarim", "Tanlangan asarlar", "Oromijon", "Gulyor", "Oftob nayzada"

11. Qaysi asarlari zamondosh o'zbek adabiyoti va san'ati namoyondalariga bag'ishlangan?

J: "Nafosat", "Kamalak" nomli adabiy portret va xotiralar kitobi.

12. Qaysi she'rlari iste'dodli san'atkorlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan?

J: "Hayo bilan", "Sumbula", "Ko'chalar", "Do'ppi tikdim", "Sartarosh qo'shig'i".

13. Yuqoridagi she'rlari qaysi to'plamdan o'rin olgan?

J: "Qanotlan, qo'shiqlarim"

14. Qaysi mashhur kinofilmlar ssenariylarining yaratilishida faol ishtirok etgan?

J: "Maftuningman", "Shashmaqom", "Furqat"

15. Qanday pyesalari bor?

J: "Qizbuloq", "Nodirabegim", "Momoyer"

16. Opera librettolari qaysilar?

J: “Zulmatdan ziyo”, “Malikayi ayyor”

17. Qaysi balet librettosi respublikamiz teatrlari repertuaridan munosib o'rin egallagan?

J: “Samarqand afsonasi”

18. Turob To'la qachon vafot etgan?

J: 1990-yil 20-aprel

19. Turob To'laning nasriy yo'nalishdagi dastlabki asari qaysi?

J: “Yetti zog'ora qissasi”

20. Bolalar uchun yozgan nasriy asari qaysi?

J: “Yetti zog'ora qissasi”

21. Bu kitobning o'ziga xos xususiyati nimada?

J: Unda bir necha nasriy janrlarda yaratilgan katta-kichik hikoyalar yagona syujet ipiga mohirlik bilan tizilgan.

22. Asarning bosh qahramonlari kimlar?

J: Baxshilla maxsum va Toshtemir

23. O'ziga to'q, tinch oilada katta bo'lgan yolg'iz o'g'il kim?

J: Toshtemir

24. Toshtemirga nihoyatda qiziq, ajoyib hikoyalarni, boshidan kechirganlarni aytib beradigan obraz kim?

J: Baxshilla maxsum

25. “Yetti zog'ora qissasi” dagi voqealar kim tomonidan hikoya qilinadi?

J: Baxshilla maxsum

26. Qissa nimadan boshlanadi?

J: Toshtemir Baxshilla maxsumdan Turbat qishlog'iga olib borishni iltimos qilishdan boshlanadi.

27. Bu qissa o'z ichiga qanday janrdagi asarlarni oladi?

J: hikoya, afsona, rivoyat,, ertak

28. Qissada qaysi shaxslar tilga olinadi?

J: Amir Temur, Ismoil ota, Avloyo ota, Yassaviy, Atoyi

29. “Yetti zog'ora qissasi”dagi qaysi hikoyada odamlar va hayvonlarning ichki kechinmalari aks ettirilgan?

J: “Do'nan” hikoyasi

30. “Do'nan” hikoyatigagi qaysi obraz egasini chaqmoqchi bo'lgan ilonning boshini majaqlagan, Toshloqdagi buloq suvini ichadigan, odamlarga o'xshab yo'lning o'ng tomonidan yuradigan obraz hisoblanadi?

J: Do'nan

31. Shang'illashi butun hovlini tutadigan obraz kim?

J: Fayzi dasturxonchi

32. Hikoyachining qishlog'ida qanday odat bor edi?

J: Uyga kelgan mehmon qaysi narsaga ko'zi tushib maqtab qolsa, ketar payti, u nima bo'lishidan qat'iy nazar, berib yuboriladi.

33. Mehmonga nima yoqib qoladi?

J: Do'nan

34. Mehmon nima uchun do'nanni qaytarib tashlab ketadi?

J: Chunki do'nan ovqat ham, suv ham ichmaydi.

35. "Do'nan" hikoyasida qaysi qishloqlarning nomi tilga olinadi?

J: Turbat, Chorbulat

36. Hikoyadagi bolaning onasining ismi nima?

J: Bashor kelin

37. "Yetti zog'ora qissasi" da "Navoiyni mahliyo qilgan donishmand" deya ta'riflangan kim?

J: Atoyi

38. Qissada kim "sharq adabiyotining vallahmatlaridan biri, butun Osiyoni aql-idroki bilan tebratgan" deya ta'riflanadi?

J: Xo'ja Ahmad Yassaviy

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

1. "Ruhi dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan, deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim". Ushbu fikrlar kimning tarjimayi holidan?

J: Xudoyberdi To'xtaboyev

2. Xudoyberdi To'xtaboyev qachon tug'ilgan?

J: 1932-yil

3. X. To'xtaboyev qayerda tug'ilgan?

J: Farg'ona viloyatining Katta Tagob qishlog'ida

4. Kimning qo'lida tarbiyalanadi?

J: Bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabibi

5. Necha yil davomida turli gazeta va jurnallarda ishlaydi?

J: 12 yil

6. Qancha felyeton yozgan?

J: 300 dan ortiq

7. Qachondan boshlab o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlaydigan asarlar yaratishga yo'naltiradi?

J: 70-yillar boshida

8. Qaysi jurnallarda faoliyat ko'rsatadi?

J: "Gulxan", "Yosh kuch"

9. "Omonboy va Davronboy" asarining janri qanday va u qachon yozilgan?

J: Qissa, 1974-yil

10. Qanday romanlar yozgan?

J: "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Besh bolali yigitcha", "Qasoskorning oltin boshi", "Yillar va yo'llar", "Shirin qovunlar mamalakati", "Mungli ko'zlar", "Jannati odamlar".

11. Qaysi yillarda "Oltin meros" jamg'armasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatgan?

J: 1980-1998-yillar

12. Qaysi asari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida bolalar uchun yaratilgan sarguzasht asarlarning eng yaxshi namunasiga aylandi?

J: "Sariq devni minib" romani

13. “Sariq devni minib” romani bosh qahramoni kim?

J: Hoshimjon

14. Hoshimjon nechanchi sinfda o’qiydi?

J: 6-sinf

15. Hoshimjon sehrli qalpoqchani qayerdan topib oladi?

J: Tashlandiq bir uydan

16. Sehrli qalpoqcha nimadan yasalgan edi?

J: Oq jundan

17. Hoshimjon sehrli qalpoqchani sehrini ilk bora qayerda sinab ko’radi?

J: O’z uyida

18. Hoshimjon sehrli qalpoqchani kuchi bilan dastlab kimni fosh qiladi?

J: Qishlog’idagi Soraxon folbin va unga yordam berayotgan o’g’li Mirobiddinxo’jani

19. Maktabidagi o’qituvchilar Hoshimjonga nimani uqtirishadi?

J: Yaxshi o’qimay turib biror-bir kasb egasi bo’lish mumkin emasligini.

20. “Sariq devni minib” romani nechta tilga tarjima qilingan?

J: 24 ta

21. “Sariq devni minib” romani kimning tahsiniga sazovor bo’lgan?

J: Italyalik buyuk bolalar yozuvchisi Janni Rodarining

22. Xudoyberdi To’xtaboyev qanday unvonlar bilan taqdirlangan?

J: “ O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi”, “O’zbekiston xalq yozuvchisi”

23. Hoshimjonga sehrli qalpoq haqidagi ertakni kim aytib bergan?

J: Buvisi

24. Hoshimjonning buvisi qaysi qishloqda turadi?

J: Qashqar qishlog’ida

SARGUZASHT ASAR HAQIDA.

1. Sarguzasht asar qanday bo’ladi?

J: Favqulodda qiziq va g’aroyib voqealar, o’quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalarga boy asarlar.

2. Jahon adabiyotidagi qaysi asarlarni sarguzasht asarlar sirasiga kiradi?

J: Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Daniel Defoning “Robinzo Kruzo”, Jyul Vernning “O’n besh yoshli kapitan” .

3. O’zbek adabiyotida qaysi asarni sarguzasht asarning mukammal namunasi deyish mumkin?

J: Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni

4. “Farhod va Shirin” dostonidagi qaysi voqealar sarguzasht asarga xos tarzda tasvirlangan?

J: Farhodning Axriman devni yengishi, Yosuman kampir kirdikorlari

JANNI RODARI

1. Qaysi yozuvchining bolaligi o'zi e'tirof etganidek, "olov jizillab turadigan tandir yonida, un va ko'mir solingan qoplar orasida" kechdi?

J: Janni Rodari

2. Janni Rodari qachon tug'ilgan?

J: 1920-yil 23-oktabrda

3. Janni Rodari qayerda va qanday oilada tug'ilgan?

J: Italiya shimolidagi Omenya shahrida hunarmand oilasida

4. Janni bolaligida qaysi kasb egasi bo'lishni orzu qilardi?

J: Qo'g'irchoq yasovchi usta yoki rassom

5. Nima uchun Janni diniy maktabga o'qishga kirishga majbur bo'ladi?

J: Chunki bu yerda o'quvchilarga ovqat va kiyim-kechak tekin berilardi.

6. Janni Rodari bu maktabda necha yil o'qiydi?

J: 2 yil

7. Nima Rodarini bolalar yozuvchisi sifatida shakllanishida jiddiy omil bo'ldi?

J: Universitetda o'qib, boshlang'ich maktabda o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Shu yerda bolalar bilan yaqindan muloqotda bo'lish, ularning fe'l-atvori, qiliqlarini chuqur o'rganish.

8. Rodarining ilk to'plami qaysi?

J: "Quvnoq she'rlar kitobi"

9. Qaysi kitoblari mutoyibaga boyligi, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi?

J: "Chippolinoning sarguzashtlari", "Telefonda aytilgan ertaklar", "Jelsamino yolg'onchilar mamlakatida", "Osmondagi tort", "Televizorga kirib qolgan Jip", "Rim ertaklari", "Uchtadan oxiri bor ertaklar"

10. Janni Rodari qanday mukofotga sazovor bo'lgan?

J: Ahamiyati Nobel mukofotiga teng bo'lgan Hans Kristian Andersen mukofotiga.

11. J. Rodari qachon vafot etgan?

J: 1980-yil 14-aprelda

12. "Hurushni eplolmagan kuchukcha" qaysi turkumga kiradi?

J: "Uchtadan oxiri bor ertaklar"

13. "Shahzoda Plombir" ertagi qaysi kitobdan olingan?

J: "Rim ertaklari"

14. Rodari qaysi ertak turkumi bilan jahon ertakchiligiga yangi bir usulni olib kirdi?

J: "Uchtadan oxiri bor ertaklar"

15. "Uchtadan oxiri bor ertaklar" turkumiga qaysi ertaklar kiradi?

J: "Sehrli nog'ora", "Ayyor buratino", "Sahrodagi uy", "Milanda yog'gan shlyapa yomg'iri", "Rinaldoning sarguzashtlari".

16. Insonga, avvalo, yaxshi ustoz kerakligi qaysi ertak g'oyasi?

J: "Hurushni eplolmagan kuchukcha"

17. “Hurushni eplolmagan kuchukcha” ertagida kuchukcha yordam so’rab kimlarga murojaat qiladi?

J: Xo’roz, kakku, sigir

18. Ertakning birinchi tugashida kuchukcha nimalarga erishadi?

J: Hurushni eplolmagan, lekin boshqa tillarni o’rganishga zo’r qobiliyati bor kuchukcha bo’lib yetishadi.

19. Ertakning ikkinchi tugashi nima bilan yakunlanadi?

J: Kuchukcha o’ziga munosib ish topadi, ya’ni bo’yniga zanjir tushib, kunda bir kosa suyak nasibasi bo’ladi.

20. “Nihoyat, yaxshi ustoz topib oldim!” deya o’zicha o’ylaydi. Ushbu jumla ertakning nechanchi yakunida ifodalangan?

J: Uchinchi tugashi

21. “Shahzoda Plombir” ertagida sinyor Molteni qanday xolodilnik sotib oladi?

J: “Qo’shaloq qutb” markali

22. Marsliklarni birinchi bo’lib kim ko’rib qoladi?

J: Sinyora Sandrelli “Pingvin” xolodilnigida

22. Mitti odamchalar qanday kiyinishgan edi?

J: Kumush korjoma, shaffof skafandr

23. Mitti odamlarning yuzi va sochlari qanday edi?

J: Yuzlari sariyog’ rangli, sochlari och binafsha rang

24. Mitti odamchalar sinyora Sandrellining uyiga qanday kirib qolishgan edi?

J: Oshxona derazasining darchasidan

25. Oshxona derazasi nima uchun ochiq qolgan edi?

J: Kechasi tasodifan gaz chiqib qolmasin deb ochiq qoldirilgan edi.

26. Mitti odamchalarning kattasini qanday ajratish mumkin edi?

J: Oltinrang korjomasidan

27. Mitti odamchalarning kattasi o’zini kim deb tanishtiradi?

J: Shahzoda Plombir

28. Mitti odamchalarning kemasiga nima yonilg’i sifatida ishlatiladi?

J: Yangi yog’gan qor

29. Shahzoda Plombirning vatani qayer?

J: Lun-Lun

30. Lun-Lunning ma’nosi nima?

J: “Gul bosilgan muzlik”

31. Shahzoda Plombir “Qo’shaloq qutb” markali xolodilnikni qanday ta’riflaydi?

J: Quyosh sistemasidagi eng ajoyib xolodilnik

32. Sinyor Molteni do’stlaridan biri puldan siqilib qolgudek bo’lsa nima deb tasalli berar edi?

J: “Tashvishlanma! Marsliklar joningga oro kiradi!”

33. “Shahzoda Plombir” ertagida yozuvchi nimani asos qilib oldi?

J: Reklamani

34. “Qutbdagi gunafsha “ ertagida gunafshani ko’rish uchun qaysi hayvonlar kelishadi?

J: Bug’ular, ho’kizsimon hayvon, morj va tyulenlar, bo’rilar, oq shimol tulkisi, zag’izg’onlar.

35. Birinchi bo’lib qaysi biri yetib keldi?

J: Chaqimchi dengiz zag’izg’onlari

36. Ertakdagi buni gunafsha ekanligini , janubda u millionlab topilishini qaysi hayvon bilib keladi?

J: chayka

37. “Hech qayoqqa olib bormaydigan yo’l” ertagidagi uch yo’l qayerlarga olib boradi?

J: Birinchisi-dengizga, ikkinchisi-shaharga, uchinchisi- hech qayoqqa.

38. Uchinchi- hech qayoqqa olib bormaydigan yolni oxirini topish uchun kim yo’lga tushadi?

J: Martin o’jar

39. Yo’lda unga nima uchrabdi?

J: It

40. Yo’l nimaga borib taqalib, g’oyib bo’ladi?

J: Temir darvozaga.

41. Martin darvozani ochib kirgan saroyni kimning saroyiga o’xshatadi?

J: Kashcheyning afsonaviy qasriga

42. “Hech qayoqqa olib bormaydigan yo’l” ertagida qaysi maqol keltirilgan?

J: Yurgan daryo, o’tirgan bo’yra

43. Qaysi ertakda oddiy it emas, o’qigan it haqida yozilgan?

J: “Hech qayoqqa olib bormaydigan yo’l”

MUHAMMAD AMINXO’JA MUQIMIY

1. Qaysi shoir ijodini o’rganish hayotlik chog’laridanoq boshlangan?

J: Muqimiy

2. Muqimiyning devoni qachon va qanday nom bilan nashr etildi?

J:1907-yil “Devoni Muqimiy”

3.”Muqimiy maa hajviyot” nomi bilan nashr etilgan kitobida qanday mavzudagi she’rlari chop etilgan?

J: Hajviy she’rlari.

4. Shoir ijodini jiddiy va samarali o’rganish qachondan boshlandi?

J: O’tgan asrning 30-yillaridan

5. Muqimiy ijodini o’rganish, gazeta va jurnallarda maqolalar chop ettirish borasida kim yetakchilik qildi?

J:G’afur G’ulom

6. G’fur G’ulom tomonidan tuzilgan qaysi to’plam katta ahamiyatga ega bo’ldi?

J: “Muqimiy bayozi”

7. Moskvada Muqimiyning “Lirika i satira” (Lirika va satira) nomli ikkinchi to’plami qachon va qaysi tilde nashr etildi?

J: 1950-yil , rus tilida.

8. Qachon Muqimiy ijodini o’rganish tarixida yangi davr bo’ldi?

J: 1953-yil

9. Kimlar shoir haqida kitoblar yozdilar, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qildilar?

J: H. Yoqubov, A. Olimjonov, H. Zaripov, H. Razzoqov, G'. Karimov.

10. Muqimiy qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1850-yil, Qo'qon shahrining Bekvachcha mahallasida

11. Qanday oilada tug'ilgan?

J: Novvoy oilasida

12. Shoirning ilm o'rganishida va badiiy ijodga erta qiziqishida kimning ta'siri kuchli bo'ldi?

J: Onasi Oyshabibining

13. Muqimiy qaysi madrasalarda ta'lim oladi?

J: Qo'qondagi "Hokimoyim" va Buxoradagi "Mehtar anbar" madrasalarida

14. "Mehtar anbar" madrasasida qaysi yillari o'qiydi?

J: 1872-1873- yillarida , 1876-yil tamomlaydi.

15. Shoir qayerlarda ishlaydi?

J: Dastlab yer qurilish mahkamasida mirzalik, so'ngra Sirdaryo yoqasidagi Oqjardagi paromda pattachilik qiladi.

16. Nima Muqimiy oilasining buzilishiga olib keladi?

J: Moddiy muhtojlik

17. Qaysi madrasadagi hujrada "hujrai tang va torlikda bekaslik va g'ariblik chirog'in yoqib" muhtojlikda umr kechiradi?

J: Hazrat madrasasida.

18. Nima Muqimiyning asosiy kasb va tirikchilik manbayi bo'lib xizmat qiladi?

J: Xattotlik

19. Muqimiy xattotlikni kimdan o'rganadi?

J: Muhammad Yusuf xattotdan

20. Muqimiy qanday ijod mahsullari bilan shuhrat qozondi?

J: Jo'shqin lirikasi, davrning hukmron ijtimoiy guruhlarini achchiq tanqid ostiga oluvchi hajviy asarlari, yumorlari bilan.

21. Qaysi shoirlardan tashkil topgan adabiy guruhga boshchilik qiladi?

J: Furqat, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir, G'aribiy, Nasimiy, Mavlaviy.

22. Shoirning otasi Mirzaxo'ja qachon vafot etadi?

J: 1885-1886-yillarda

23. Qachon Qo'qonni tark etib Toshkentga boradi?

J: 1887-1888-yillarda

24. Muqimiy qachon vafot etadi?

J: 1903-yilda, 53-yoshida

25. Muqimiy, asosan, qaysi yo'nalishda ijod qilgan?

J: Nazm- she'riyat

26. Shoir merosining hajmi qancha?

J: Taxminan 10 ming misra

27. Muqimiy merosi nimalardan iborat?

J: Lirik asarlar, Hajviyot, "Sayohatnomalar", maktublar.

28. Shoir lirikaning qaysi janrlarida ijod qilgan?

J: G'azal, muxammas, murabba, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard.

29. Muqimiyning "Tanobchilar" asari qanday asar?

J: Satirik she'riy hikoya.

30. "Tanobchilar" satiric hokoyasi nimadan boshlanadi?

J: Amaldorlar zulmiga yo'liqqan dehqon arz-dodi bilan.

31. Ushbu satirik hikoyada qaysi amaldorlar tilga olinadi?

J: Sulton Ali va Hakimjon.

32. Tanob nima?

J: Arqon, o'lchov birligi.

33. Tanob, ya'ni o'lchov birligi necha oyda keladi?

J: O'n ikki oyda.

34. Erhubbi kim?

J: Islomgacha bo'lgan davrdagi avliyo.

35. "Bibi Ubayda bo'ladur xolamiz, Goh kelur erdi kichik bolamiz" jumlasidagi Bibi Ubayda kim?

J: Avliyo ayollardan.

HAJVIY ASAR HAQIDA TUSHUNCHA.

1. Hajviy asar qanday asar hisoblanadi?

J: Tanqidiy va kulgi uyg'otadigan badiiy asar.

2. Shakliga ko'ra qanday ruhda boladi?

J: Satirik va yumoristik

3. Hajviy asarlarda nimalar aks ettiriladi?

J: Jamiyat hayotidagi kamchiliklar, ayrim shaxslar fe'l-atvoridagi, xatti-harakatidagi qusurlar tanqid qilinadi, ya'ni kulgili qilib tasvirlanadi.

4. Muqimiyning "Maskovchi boy ta'rfida", "Saylov", "Dodhohim", "Tanobchilar" hajviy asarlari qanday usulda yozilgan?

J: She'riy hikoya

5. Pyesa shaklida yozilgan hajviy asarlar qaysilar?

J: A. Qahorning "Og'riq tishlar", Hamzaning "Maysaraning ishi", "Tuhmatchilar jazosi", Gogolning "Revizor" asarlari.

6. Chexovning "Yovuz niyatli kishi", "Chiqdi", "Qiyshiq oyna", Abdulla Qahorning "Adabiyot muallimi" hajviy asarlari qaysi janrda yozilgan?

J: Hikoya

7. Hajviy yo'nalishda yozilgan romanlar qaysilar?

J: Ilf va Petrovlarning "O'n ikki stul", "Oltin buzoqcha", Ne'mat Aminovning "Yelvizak" asarlari.

8. Muqimiyning "Tanobchilar" hajviy asari nima uchun satirik asar hisoblanadi?

J: Chunki unda tanobchilarning asl qiyofasi ayovsiz fosh qilingan.

9. Hajviy asarlarda qaysi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi?

J: Mubolag'a, fantaziya, sifatlash, o'xshatish, qarshilantirish.

10. "O'zgalarga rohat-u, menga azob" misralarida qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalanilgan?

J: Qarshilantirish.

11. "Og'zilari maqtanib o'n besh qarich, Mayda suxan, ezmachchuruk, zanchalish" Misralarida qaysi badiiy tasvir vositasidan foydalanilgan?

J: Mubolag'a.

12. Mumtoz adabiyotimizda kimlar hajviy yo'nalishdagi asarlar yozishgan?

J: Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Zavqiy.

13. Hozirgi kunda kimlarni hajvchi shoir va adiblarimiz keng ijod qilishmoqda?

J: Said Ahmad, Ne'mat Aminov, Anvar Obidjon.

HAMID OLIMJON

1. Hamid Olimjon kim?

J: Shoir, dramaturg, tarjimon, olim.

2. Hamid Olimjon qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida

3. Otasidan erta ayrilgan Abdulhamid kimning qo'lida tarbiyalangan?

J: Bobosi Azimbobo

4. Qaysi baxshi shoirning kuylagan doston va xalq qo'shiqlari ta'sirida she'r yozishga ishtiyoq uyg'ongan?

J: Fozil Yo'ldosh

5. Ilk to'plami qaysi?

J: "Ko'klam"

6. Ilk to'plami qachon nashr etilgan?

J: 1929-yili

7. She'riy to'plamidan so'ng hikoyalar to'plami qanday nom bilan chop etilgan?

J: "Tong shabadasi"

8. Hamid Olimjon 1931-yil Pedakademiyaning tugatib, Toshkentga kelib, yoshlar gazetasida ishlay boshlaganda qaysi kitobchasi bosilib chiqadi?

J: "Olov sochlar"

9. Qanday dostonlar va tarjimalardan iborat kitoblari dunyo yuzini ko'rdi?

J: "O'lim yovga", "Poyga", "Daryokechasi", "She'rlar", "O'lka", "Oygul bilan Baxtiyor", "Baxt".

10. Qachon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga mas'ul kotib etib tayinlandi?

J: 1939-yil

11. Hamid Olimjonning qanday dostonlari bor?

J: "Ikki qizning hikoyasi", "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", "Zaynab va Omon".

12. "Muqanna" qanday asar?

J: Tarixiy sahna asari.

13. Zamonaviy mavzudagi sahna asari qaysi?

J: "Jinoyat"

14. Qaysi dostonni Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olib, izohlar bilan nashr ettirgan?

J: "Alpomish"

15. Qaysi shoir hayoti va ijodi haqida ilmiy maqolalar e'lon qilgan?

J: Alisher Navoiy.

16. Qachon O'zbekistonda tashkil etilgan Fanlar Akademiyasi muxbir a'zosi etib saylangan?

J: 1943-yil

17. Hamid Olimjon qachon vafot etgan?

J: 1944-yil.

18. Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rida qanday mavzu yoritilgan?

J: Vatan mavzusi, tug'ilib o'sgan diyorga muhabbat va minnatdorlik hislari.

19. "O'zbekiston" she'ri qachon yozilgan?

J: 1939-yil.

20. H.Olimjonning "O'zbekiston" she'rida qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalanilgan?

J: O'xshatish, qiyoslash, jonlantirish, mubolag'a, qarshilantirish, poetic takror, ta'kid kabilar.

ABDULLA QAHHOR

1. Abdulla Qahhor qachon tug'ilgan?

J: 1907-yilning 17-sentabrida.

2. Abdulla Qahhor qayerda tug'ilgan?

J: Qo'qon shehridan uncha uzoq bo'lmagan Asht qishlog'ida.

3. Otasi kim va kasbi nima?

J: Abduqahhor, temirchi.

4. "Men bir qora kunda tug'ildim, Tug'ildim-u, shu on bo'g'ildim".

Misralar muallifi kim?

J: Hamid Olimjon.

5. Abdulla Qahhor necha yoshga kirganda Birinchi jahon urushi boshlangan?

J: Yetti yoshga.

6. "O'tmishdan ertaklar" qanday asar?

J: Yozuvchi bolalaigi to'g'risida batafsil hikoya qilingan avtobiografik asar.

7. Yana qaysi asarida Abdulla Qahhorning o'z bolalaigi aks ettirilgan?

J: "Sarob" romanining 1937-yildagi 1-nashridan o'rin olgan temirchining o'g'li Sarimsoq tarixida.

8. Abdulla Qahhor qachon o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda o'qiydi?

J: 1922-1924-yillar.

9. Qaysi jurnalda uning felyetonlari, hikoya va hajviyalari ketma-ket chop etiladi?

J: "Mushtum"

10. Yozuvchi bu asarlariga qanday taxalluslar qo'ygan?

J: Norin shilpiq, Sarimsoq

11. Dastlabki qissasi qachon chop etilgan?

J: 1932-yil.

12. 1934-yilda qaysi romanini yozib tugatadi?

J: "Sarob" romani

13. "Sarob" romani qachon o'quvchilarga kitob shaklida taqdim etildi?

J: 1937-yilning oxirida.

14. 1949-yilda yozilgan “Qoshchinor” nomli romanida qaysi mavzu yoritilgan?

J: Qishloq xo’jaligini jamoatlashtirish, ya’ni kolxozlashtirish mavzusi.

15. “Qoshchinor” romani qachon va qanday nom bilan boshqatdan chop etilgan?

J: 1951-yil, “Qoshchinor chiroqlari” nomi bilan.

16. Qaysi komediyalari tomoshabinlarning sevimli asarlariga aylangan?

J: “Shohi so’zana”, “Og’riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim”.

17. Qaysi qissalari orqali zamonaviy qissachilik rivojiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi?

J: “Sinchalak”, “O’tmishdan ertaklar”, “Muhabbat”, “Zilzila”

18. Qaysi qissasi tugallanmagan?

J: “Zilzila” qissasi.

19. Qaysi qissasi va romani asosida telespektakllar, video va badiiy filmlar suratga olingan?

J: “Sinchalak” qissasi va “Qoshchinor chiroqlari” romani.

20. Abdulla Qahhor qachon vafot etgan?

J: 1968-yil 25-mayda.

21. Abdulla Qahhor qanday unvon va ordenga munosib topilgan?

J: “O’zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni, mustaqillik davrida esa “Buyuk xizmatlari uchun” ordeniga.

22. “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli qaysi asarga epigraf qilib olingan?

J: “Bemor “ hikoyasiga.

23. “Bemor” hikoyasida kimning xotini kasal bo’lib qoladi?

J; Sotiboldining.

24. “Salqin , tinch parkda, daraxtlar ichida ko’milgan baland va chiroyli imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo’ng’iroq tugmasi bor”. Ushbu tasvirda qayer ifodalangan?

J: Doktorxona

25. Sotiboldining xo’jayini nima ish qiladi?

J: Chigit po’choq va kunjara bilan savdo qiladi.

26. Doktorxona deganda Sotiboldining ko’z oldiga nima keladi?

J: Izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so’mlik pul.

27. Sotiboldi xo’jayini Abdug’aniboydan yordam so’rab borganda, u nima maslahat beradi?

J: Devonai Bahovuddin va G’avsula’zamga biron nima ko’tarishni.

28. Sotiboldi kasal xotining yonida bo’lish uchun qaysi kasb bilan shug’ullanadi?

J: Har xil savatchalar to’qish.

29. Sotiboldining qizi necha yoshda edi?

J: To’rt yashar.

30. Sotiboldi kimdan yigirma tanga qarz ko’taradi?

J: To’qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan.

31. “Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin” . Ushbu soʻzlar kimning tilidan aytilgan?

J: Sotiboldining toʻrt yashar qizining.

32. Hikoyada tilga olingan Sim shahri hozirgi qaysi shahar?

J: Fargʻona.

33. Abdugʻaniboy nima uchun Sim shahriga davolanish uchun boradi?

J: Omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib oʻladigan boʻlganda.

34. Kim millat “tanasidan qon oldirgan bemor” holiga tushganini aytib achinadi?

J: Hamza.

35. “Bemor” hikoyasidagi bemor kim edi?

J: Faqat Sotiboldining xotini emas, butun jamiyat bemor.

36. “Bemor” hikoyasi qachon yozilgan?

J: 1936-yil.

BADIIY ASAR TILI HAQIDA.

1. Til bilan bogʻliq uchta tushunchani aralashtirib yubormaslik lozim. Bular qaysilar?

**J: 1) umumxalq tili
2) adabiy til
3) badiiy til**

2. Umumxalq tili deganda nimani tushuniladi?

J: Yurtimizdagi oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning barchasi-ularning yashash hududi, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi, hayotda bajarayotgan mashgʻulot turi va boshqalardan qatʻiy nazar, foydalaniladigan til tushuniladi.

3. Umumxalq tilining leksik, Grammatik, imlo va talaffuz jihatdan meʼyorlashtirilgan shakli qaysi?

J: Adabiy til.

5. Qaysi til umumxalq tili va adabiy tilga tayanadi?

J: Badiiy til.

6. Badiiy til oʻz zamirida nimalarni saqlab qolgan?

J: Anʼanaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, oʻxshatish va boshqalarni.

7. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan til va badiiy til nimaga xizmat qiladi?

J: Axborot yetkazish va axborot olishga xizmat qiladi.

ODIL YOQUBOV

1. Odil Yoqubov qachon tugʻilgan?

J: 1926-yil 20-oktabrda

2. Odiy Yoqubov qayerda tugʻilgan?

J: Janubiy Qozogʻiston viloyatiga qarshli Qarnoq qishlogʻida.

3. Odil Yoqubov harbiy xizmatga chaqirilganda qaysi urushda qatnashgan?

J: Ikkinchi jahon urushi tugash arafasida edi, Yaponiya davlati bilan boʻlgan urushda qatnashgan.

4. Qachon Oʻrta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida oʻqiydi?

J: 50-yillarda harbiy xizmatdan qaytganda.

5. Odil Yoqubovning dastlabki yirik asari qaysi?

J: “Tengdoshlar” qissasi.

6. “Tengdoshlar” qissasi qachon bosilib chiqqan?

J: 1951-yil

7. Shundan soʻng qanday hikoyalar toʻplami hamda qissa va hikoyalar toʻplamlari bosilib chiqdi?

J: “Dastlabki qadam?” ,” Ikki muhabbat” hikoyalar toʻplami, “Tilla uzuk” qissa va hikoyalar toʻplami.

8. Odil Yoqubov qanday pyesalar yaratgan?

J: “Chin muhabbat”, “ Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi”, “Yurak yonmogʻI kerak”, “Olma gullaganda”.

9. Odil Yoqubov qissalari qaysilar?

J: “Muqaddas”, “Qanot juft boʻladi”, “Izlayman”, “Billur qandillar”.

10. Odil Yoqubovning qaysi qissalari kitobxonlar mehrini qozongan?

J: “Er boshiga ish tushsa...”, “Ulugʻ bek xazinasi”, “Koʻhna dunyo”, “Diyonat” ,” Oqqushlar, oppoq qushlar” romanlari.

11. Odil Yoqubov oʻzi yozgan romanlarida qaysi buyuk allomalar hayoti, ularning ulugʻvor ishlari haqida hikoya qiladi?

J: Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulugʻbek.

12. Mustaqillik yillarida yaratgan qaysi asarlarida xalqimizning oʻtmishi va bugungi kunning dolzarb muammolari badiiy tadqiq etilgan?

J: “Adolat manzili” romani, “Muzaffar Temur” ,” Bir koshona sirlari” pyesalarida.

13. Odil Yoqubov 1985-yilda qanday unvonga ega boʻlgan?

J: Oʻzbekiston xalq yozuvchisi.

14. Yozuvchi qanday ordenlar bilan mukofotlangan?

J: 1994-yilda “Doʻstlik”, 1998-yilda “El-yurt hurmati” ordeni.

15. Odil Yoqubov qachon vafot etgan?

J: 2009-yilda.

16. Odil Yoqubov qaysi asarida oʻzining otasi timsolida qatagʻon davrining dahshatlari aks etgan bolalik xotiralarini aks ettirgan?

J: “Muzqaymoq” hikoyasida.

17. “Xalqimiz va millatimizning yaqin oʻtmishidagi yopiq sahifalarni toʻla ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarshani shakllantirish, begunoh qurbon boʻlgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz”. Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?

J: I.A. Karimovning “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asaridan.

18. “Muzqaymoq” asaridagi voqealar kimning tilidan bayon qilinadi?

J: 10 yashar bola

19. Kim bolani “qashqirdan tugʻilgan qashqircha “ deb haqorat qiladi?

J: Shahar komsomol qoʻmitasi kotibi.

20. Kim bolaga achinib, chekka - chekkada boshini silab, hamdardlik bildiradi?

J: Yosh tatar oʻqituvchi.

21. Sho'ro zamonida kim qahramonga aylantirilib, barcha maktab o'qituvchilariga ibrat qilib ko'rsatilar edi?

J: Pavlik Morozov.

22. Pavlik Morozov nima uchun qahramonga aylantirilgan?

J: O'z otasini dushman sanab, qizil askarlarga tutib bergani ushuni.

23. -Malades!-dedi boshimni silab,- kelgusida Pavlik Morozov chiqadi sendan! Ushbu so'zlar kimga tegishli?

J: Kapitan

24. Kapitan uni nima uchun maqtaydi?

J: Kapitan ocholmagan shkafning tortmasini ochib bergani uchun.

25. Bolaning onasining ismi nima?

J: Gulshan

ERKIN VOHIDOV

1. Erkin Vohidov qachon tug'ilgan?

J: 1936-yili 28-dekabrda

2. Qayerda, qanday oilada tug'ilgan?

J: Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida, muallim oilasida.

3. Otasi qachon vafot etadi?

J: 1945-yili

4. Nima uchun uni tog'asi o'z tarbiyasiga oladi?

J: O'n yoshga yetar-yetmas ham ota, ham onadan ajralgani uchun.

5. Kitobga, adabiyotga havas uyg'ongan shoir qaysi adabiy to'garakka qatnashadi?

J: G'ayratiy tomonidan O'quvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy to'garakka.

6. Necha yoshidan ancha pishiq she'rlar yoz boshlaydi?

J: 15-16 yoshidan.

7. Erkin Vohidov maktabni oltin medal bilan tamomlab, qayerga o'qishga kiradi?

J: Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetiga.

8. Shoirning qaysi she'rlaridagi chuqur ma'no go'zal ifodalar, ajoyib tasvirlar bilan uyg'unlashib ketadi?

J: "Ton lavhasi", "Kamtarlik haqida", "Buloq", "Sevgi", "Ona tuproq".

9. Qanday dostonlari bor?

J: "Nido", "Orzu chashmasi", "Palatkada yozilgan doston", "Quyosh maskani", "Ruhlar isyoni".

10. "Nido" dostoni qachon yozilgan?

J: 1964-yili

11. Jahon adabiyoti namunalari hisoblangan qaysi asarlarni tarjima qildi?

J: S. Yesenin she'rlari, Gyotening "Faust" asarini.

12. Qaysi dramalari bor?

J: "Oltin devor", "Istanbul fojiasi"

13. Qaysi dramasi uzoq yillar o'zbek teatr sahnasidan tushmay, jahonning qator tillariga tarjima qilinib, teatrlarda sahnalashtirilgan?

J: "Oltin devor"

14. Erkin Vohidov ellik yildan ko'proq davr mobaynida ijod etgan asarlarini to'plab, necha jildlik saylanmasini o'quvchilarga taqdim etdi?

J: To'rt jildlik

15. Saylanmasidagi kitoblari qaysilar?

J: "Ishq savdosi", "She'r dunyosi", "Umr daryosi", "Ko'ngil nidosi".

16. Erkin Vohidovning qaysi dostonida insoniyatga og'ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralanadi?

J: "Nido" dostonida

17. "Ruhlar isyoni" dostonida nimalar tasvirlangan?

J: Xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan.

18. Erkin Vohidov qanday mukofotlar bilan taqdirlangan?

J: "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan.

20. Erkin Vohidovning qaysi asari ona xalqi-o'zbekimga bag'ishlangan?

J: "O'zbekim" qasidasi

21. "O'zbekim" qasidasida shoir o'zbekning "ming asarlar ichra pinhon" tarixini qayerdan izlash lozimligini aytadi?

J: Samarqadda saqlanib qolgan Afrosiyob yodgorligidan, Mo'g'uliston va Sibirdagi O'rxun va Enasoy daryolari qirg'oqlaridan topilgan qadimiy tosh bitiklardan.

22. Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yillik yubileyi qachon nishonlangan?

J: 2006-yil

23. "Dengiz ortin yoritdi ilk bor Beruniyning aql mash'ali" misralari qaysi she'rdan olingan?

J: A. Oripovning "O'zbekiston" she'ridan

QASIDA HAQIDA TUSHUNCHA

1. Qasida nima?

J: Mashhur tarixiy shaxslar va voqealarni madh etuvchi tantanavor she'r.

2. Qasida qaysi she'riy janr kabi qo'fiyalanadi?

J: G'azal

3. Mumtoz adabiyotimizda qanday mavzularda qasidalar bitilgan?

J: Turli hukmdorlar, yirik tarixiy voqealar, tabiat go'zalliklari, hatto ijodkorning o'zi to'g'risida.

4. Kim Mirzo Ulug'bekni sharaflab to'rtta qasida bitgan?

J: XV asrda yashab ijod etgan Sakkokiy.

5. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro sharafiga bag'ishlab qaysi qasidalarni yozgan?

J: "Hiloliya", "Tuhfatul afkor"
(**"Fikrlar sovg'asi"**)

6. Zamonaviy adabiyotimizda kimlarning asarlari qasidachilik doirasida kengroq mavzularni qamrab olinayotganidan dalolat beradi?

J: M. Shayxzodaning "Toshkentnoma", E. Vohodovning "O'zbekim", A. Oripovning "O'zbekiston" qasidalari.

7. Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasini qanday asar deb baholash mumkin?

J: Xalqimiz sha'ni va shavkatiga badiiy so'zdan tiklangan muhtasham obida.

O'TKIR HOSHIMOV

1. Abdulla Qahhor kimni "Sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladigan asar" yozgani uchun maqtaydi?

J: O'tkir Hoshimovni

2. O'tkir Hoshimov qachon qayerda tug'ilgan?

J: 1941-yilda Toshkentning Dombirobod mahallasida.

3. O'tkir Hoshimov ijodini qachondan boshlagan?

J: O'quvchilik chog'laridan

4. Dastlabki kitobi qachon chop etilgan?

J: Talabalik yillarida

5. Yozuvchi yoshligidan ijodiy ishni amaliy mehnat bilan barobar olib borgan .U qayerlarda ishlagan?

J: Nashriyotda xat tashuvchi, musahhih, gazetada bo'lim mudiri, nashriyot va jurnalda bosh muharrir

6. Qanday hikoyalari bor?

J: "Urushning so'nggi qurboni", "Muhabbat",

7. Qissalarini sanang.

J: " Odamlar nima derkin", " Shamollar esaveradi", "Ikki karra ikki besh", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari".

8. Qaysi romanlari mamlakatimizda va chet ellarda sevib o'qilmoqda?

J: "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar".

9. Qaysi dramalari respublikamiz teatrlarida sahnalashtirilgan?

J: "Qatag'on", "Inson sadoqati", "To'ylar muborak".

10. O'tkir Hoshimov qanday mukofotlar sohibi?

J: 1991-yil O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni, 1996-yil "Mehnat shuhrati " ordeni va 2001-yil "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari sohibidir.

11. Qaysi hikoya qahramoni urush ketayotgan joylardan minglab kilometr uzoqda bo'lsa-da , halok bo'ladi?

J: "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi

12. “Kambag’alning ekkani unmaydi, bolasi ko’payadi o’zi”. Ushbu o’ylar kimga tegishli?

J: “Urushning so’nggi qurboni” hikoyasidagi Shoikromga.

13. Shoikromning kasbi nima edi?

J: To’qimachilik kombinatida montyor.

14. Shoikromning xotining ismi nima?

J: Xadicha

15. Shoikromning nechta farzandi bor edi?

J: 3 ta qizi

16. Shoikromning onasi Umri xola kim bilan yashardi?

J: Kichik o’g’li Shone’mat bilan.

17. Shone’mat qanday kasalga chalingan edi?

J: Sil

18. Shone’matni qaysi tabib nahorga qo’y suti ichishi kerakligini aytadi?

J: Komil tabib.

19. Shoikromni nima uchun urushga olishmagan edi?

J: Ukasi sil bo’lgani uchun.

20. “Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday , zamon qalqigandan buyon yomon ko’paydi. Erta bahorda ularning tug’ay deb turgan sigirini o’g’irlab ketishdi”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: “Urushning so’nggi qurboni” hikoyasida.

21. Kimning xotini o’g’rilar pichoqlab ketishgan?

J: Ilhom samovarchining.

22. Shoikrom nima uchun simni tokka ulab qo’ydi?

J: Xotinidan qulupnayga o’g’ri tushganini eshitib, o’g’rini ushlab uchun.

23. Qulupnayni kim terib olayotgan edi?

J: Umri xola.

24. Umri xola ga qulupnay nima uchun kerak edi?

J: Kasal o’g’liga sutga almashish uchun.

25. Umri xolani peshin namoziga chiqarib, qabristondan qaytib kelishayotganda Shoikrom odamlarning o’zaro gapidan nimani bilib oladi?

J: Urushning tamom bo’lganini.

26. Qaysi asar qahramoni bilmasdan o’z onasini o’ldirib qo’yadi?

J: Urushning so’nggi qurboni” hikoyasi.

27. “Urushning so’nggi qurboni” hikoyasida nima tasvirlangan?

J: Urushning salbiy oqibatlari, urush tufayli insonlar ruhiyatida yomon o’zgarishlar hosil bo’lgani.

6-SINF ADABIYOT II QISM SAID AHMAD

1. Said Ahmad qachon va qayerda tug’ilgan?

J: 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahrida “Samarqand darboza” mahallasida tug’ilgan

2. Qayerlarda ta'lim olgan?

J:Avval o'rta maktabda, so'ng Navoiy nomli pedagogika institutida o'qigan.

3.Bo'lajak yozuvchining ilk mashqi qaysi jurnalda , qanday nom bilan chop etilgan?

J:"Mushtum" jurnalida, "Ishqiboz" nomli hajviy hikoya

4. "Ishqiboz" hajviy hikoyasi chop etilganda necha yoshda edi?

J:16 yosh

5. Dastlabki ish faoliyati qaysi jurnal bilan bog'liq?

J:"Mushtum" jurnali

6. Said Ahmad qayerlarda ishlagan?

J:Ikkinchi jahon urushi yillari "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasi tahririyatida , keyinroq "Sharq yulduzi" jurnalida ishlagan.

7. Qachon "xalq dushmani" degan tuhmat bilan qamaladi?

J:O'tgan asrning 50-yillarida

8. Yozuvchining birinchi kitobi qachon, qanday nom bilan nashr etilgan?

J:1940- yil "Tortiq" nomli hikoyalar to'plami

9. Yozuvchining yana qanday kitoblari bor?

J:"Er yurak" (1942-yil), "Farg'ona hikoyalari" (1948-yil), "Muhabbat" (1949-yil) to'plamlari

10. S. Ahmad qissalari qaysilar?

J:"Qadrdon dalalar" (1949-yil), "Hukm" (1958-yil)

11. Uning ijodida alohida o'rin tutgan asar qaysi?

J:"Ufq" romani bo'lib, 60-yillarda dastlabki ikki kitobi chop etilgan, keyinroq uchinchi kitobi ham chop etilgan va trilogiya sifatida adabiyotimiz xazinasini boyitdi

12. Yozuvchining qaysi asarida xalqimizning ikkinchi jahon urushi arafasida, urush yillarida, urushdan keying ilk davrdagi hayoti, fidokorona mahnati, kurashlari, orzu-armonlari aks etgan?

J:"Ufq" romanida

13. "Jimjitlik" romani qachon chop etilgan?

J:1988- yil

14. Said Ahmad 70-80-yillarda o'z hikoyalari asosida qaysi pyesalarini yozgan?

J: "Kelinlar qo'zg'oloni", "Kuyov"

15. Qanday hajviy to'plamlari bor?

J:"Xandon pista" (1994-yil), "Bir o'pichning bahosi" (1995-yil)

16.Yozuvchi xotiralar to'plamlarida kimlar haqida ma'lumot beradi?

J:Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shuhrat, Saida Zunnunova, O'lmas Umarbekov

17. "Qoplon" va "Sobiq" asarlarining janri?

J:Hikoya

18. "Qoplon" asaridagi hushomadgo'y, laganbardor obraz kim?

J:Qurbonboy

19. Qurbonbiyning ikkiyuzlamchiligini bilmay, unga iltifot ko'rsatgan avvalgi rahbar kim edi?

J: Tillayev

20. Tillayev yangi rahbarning uyida "bu itni taniyman" deb kimni nazarda tutadi?

J: Qurbonboyni

21. Qaysi asar qahramoni birinchi kuniyoq to'qqiz tonna paxta terгани uchun qahramonga aylanadi?

J: "Sobiq" hikoyasi qahramoni

22. "O'zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. Sen bizning mash'alimizsan." Ushbu so'zlar kimga tegishli?

J: "Sobiq" hikoyasidagi rais Berdialiga

23. Kinochilar kelganda kimning mashinasida paxta teradi?

J: Ummatalining

24. Qaysi asarda hali yosh, tajribasi kamroq rassom haqida so'z boradi?

J: "Sobiq" hikoyasida

BADIIY ASARDA KULGI

1. Kulgi nima?

J: Turli janrdagi asarlarda uchrashi mumkin bo'lgan hodisa, holat.

2. Mutaxassislar kulgini qanday yo'nalishlarga ajratishgan?

J: Satira va yumor

3. Satira nima?

J: Yunoncha so'z bo'lib, aralash degan ma'noni anglatadi. Badiiy asarda keng ma'noda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llanadi.

4. Yumor qanday kulgi?

J: Ingliz tilidagi namlik, suyuqlik so'zidan olingan bo'lib, u keng ma'noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo'zg'ash, hazil-mutoyiba sifatida qo'llaniladi.

5. Said Ahmadning "Sobiq" va "Qoplon" hikoyalarida qanday kulgi ifodalangan?

J: "Qoplon" hikoyasi satirik kulgi yo'nalishida, "Sobiq" hikoyasi yumoristik kulgi yo'nalishida

MUSA JALIL

1. Musa Jalil qachon tug'ilgan?

J: 1906-yil 15-fevralda

1. Musa Jalil qayerda va qanday oilada tug'ilgan?

J: Rossiyaning Orenbug gubernasida dehqon oilasida

2. Musa Jalil qayerlarda ta'lim olgan?

J: Dastlab ovuldagi boshlang'ich maktabda, Orenburgdagi "Husayniya" madrasasida

3. Ilk she'ri qaysi gazetada, qachon bosilgan?

J: 1916-yil "Qizil yulduz" gazetasida

4. 1925-yilgacha yozgan asarlarini jamlab qanday nom bilan to'plam tuzgan?

J: "Biz boramiz"

5. “Biz boramiz” nomli to’plamida qanday janrdagi asarlari bor?

J:She’rlar va dostonlar

6. “O’rtoqqa” nomli kitobi qachon chop etilgan?

J:1929-yil

7. 1934-yil qanday kitobi chop etilgan?

J:“ Ordenli millionerlar”

8. Moskva davlat universitetining adabiyot fakultetini qachon tamomlagan?

J:1931-yil

9. “Xat tashuvchi “ poemasi qachon yozilgan?

J:1940-yil

10 . “Xat tashuvchi “ poemasi qahramonlari kimlar?

J:Temirbulat va Fayroza

11. “Xat tashuvchi” poemasidagi Temirbulatning kasbi nima edi?

J:Xat tashuvchi

12. Musa Jalil “Xat tashuvchi” poemasida qanday mavzuni yoritib bergan?

J:Ikki yoshning sof muhabbatini, samimiy insoniy kehinmalarini yorqin she’riy bo’yoqlarda aks ettirgan

13. Qaysi operasi butun mamlakatda katta dovrug’ qozongan?

J:Bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yaratgan “Oltin soch” operasi

14. Butun urushning dahshati ro’yirot tasvirlangan she’rlari qaysi kitobida jamlangan?

J:“Okopdan xatlar”

15. Taqdir kuldi , o’lim tegmasdan O’tib ketdi, qilmadi jur’at.
Netay, axir so’nggi minutda
Pistoletim qildi xiyonat...

Yuqoridagi misralar Musa Jalilning qaysi she’ridan olingan?

J:“Kechir yurtim” she’ri

16. “Kechir yurtim” she’ri qachon yozilgan?

J:1942-yil

17. Musa Jalil dushman qo’liga qachon asir tushadi?

J:1942-yil iyun oyida

18. Urushda asir tushgan Musa Jalil qaysi turmada yotadi?

J:Berlindagi Moabit turmasida

19. Musa Jalil she’rlari yozilgan yondaftarchani Belgiya konsulxonasiga kim olib keladi?

J:Belgiyalik partizan Andre Timmermans

20. Yondaftarchada nechta she’r bor edi?

J: 115 ta she’r , 60 tasini ozi ko’chirib qoldirgan

21. Yondaftarchadagi vasiyatnoma qachon yozilgan?

J:1943-yil dekabr

22. Musa Jalil qachon vafot etgan?

J:Vasiyatnoma yozilgandan bir oy o’tib, 1944-yil yanvarda

23. Senga mendan xabar bersalar,
 “U yiqildi charchab”,- desalar,
 Yo’q, ishonma, jonim!
 Bu so’zni -
 Do’stlar aytmaz, yaqin ko’rsalar”.
 Yuqoridagi misralar qaysi she’rdan
 olingan?

J:“Ishonma” she’ridan

24. “Ishonma” she’ri qachon
 yozilgan?

**J:1943-yil 20 noyabrda o’limidan
 ikki oy oldin**

25. “Ishonma” she’rining qaysi
 misralari orqali vatanparvarlik, yurtga
 muhabbat hissi kuchli aks etilib,
 o’zgalar yuragida ham shu hislarning
 kuchayishiga sabab bo’ladi?

**J:Yurtim, seni qo’limdan bersam,
 Nima qolar menga olamda?**

26. Qaysi misralar Musa Jalilning
 butun hayoti va ijodiga qo’yilgan
 go’zal badiiy obida bo’lib qoldi?

**J:“Olim” deyish mumkinmi axir,
 Yengib bo’lgan bunday o’limni?”**

27. “Uch, qushcha, hur
 Qo’shig’im bo’lib!—
 Shudir sendan so’nggi tilagim.
 Tanim qolsin bunda (Tan nima?)
 Ona yurtga borsin yuragim”

Yuqoridagi misralarni o’z ijodi
 yurtiga yetib borishini orzu qilgan
 shoir kimga yoki nimaga qarata
 aytadi?

**J:Qamoqxonaning tikanli simiga
 kelib qo’ngan erkin qushchga**

28. Musa Jalilning “Moabit daftari”
 to’plamining tarjimoni kim?

J:Mamarasul Boboyev

XALQ QO’SHIQLARI

1. “...kuy –qo’shiqqa, san’atga
 muhabbat, musiqa madaniyati
 xalqimizda bolalikdan boshlab, oila
 sharoitida shakllanadi. Uyida dutor,
 doira yoki boshqa cholg’u asbobi
 bo’lmagan, musiqaning hayotbaxsh
 ta’sirini o’z hayotida sezmasdan
 yashaydigan odamni bizning
 yurtimizda toppish qiyin, desak,
 mubolag’a bo’lmaydi”. Ushbu fikrlar
 kimning qaysi asaridan olingan?

**J: I.A.Karimovning “Yuksak
 ma’naviyat- yengilmas kuch “
 asaridan**

2. Qo’shiq nima?

**J:Qadimiy lirik janr bo’lib, kuyga
 solib aytishga mo’ljallab yoziladi.**

3. Qo’shiq necha xil?

**J:Ikki xil: xalq qo’shiqlari va
 yozma qo’shiqlar**

4. Xalq qo’shiqlarining yaratilishi
 qanday?

**J:Xalq qo’shiqlari dastlab mehnat
 jarayonida paydo bo’lgan.**

5. Xalq qo’shiqlarida nimalar aks
 etgan?

**J:Xalqning orzu-umidlari, zavq-
 shavqi, quvonch va iztiroblari**

6. Yozma adabiyot bilan qo’shiq
 janrining bir-biriga aloqadorligi
 nimalarda ko’rinadi?

**J:Mumtoz va zamonaviy
 shoirlarimizning she’rlari
 xalqimizning sevimli qo’shig’iga
 aylanganligidadir**

7. Xalq qo'shiqlarining yaratilishi nimalarga asoslangan?

J:Har bir joining jug'rofiy tuzilishi, iqlimiga , urf-odatlariga, o'tkazilgan marosimlariga monand tarzda.

8. Marosim qo'shiqlariga qaysilar kiradi?

J:“Yor-yor”, “Kelinsalom”, “Kuyovsalom”

9. Mehnat qo'shiqlariga qaysilar kiradi?

J:“Xo'p hayda”, “Maydagul”, “Xo'sh-Xo'sh”, “Turey-turey”, “Churey-churey”

10. O'yin qo'shiqlariga qaysilar kiradi?

J:“Boychechak”, “Oq terakmi, ko'k terak”, “Chittigul”

11. “Boychechak” qo'shig'i qaysi faslda ijro etiladi?

J:Bahorda

12. Boychechak nimaning belgisi?

J:Bahorga yetib kelganlikning shukronalik belgisi

13. Boychechak nimaning ramzi?

J:Ijobiy obraz, yoshlik, jo'shqinlik ramzi

14. “Boychechak” qo'shig'ining necha qatorli ko'rinishlari bor?

J:To'rt, olti, sakkiz

ALISHER NAVOIY

1. “Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa,

Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa”. Ushbu fukr muallifi kim?

J:I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” asarida

2. Alisher Navoiy yashagan yillarni ayting.

J:1441-1501-yillar

3.Navoiy ijodidagi alohida e'tiborga loyiq asar qaysi?

J:“Xamsa” dostoni

4. “Xamsa” yozgan shoirlar qaysilar?

J:Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, hind shoiri Xusrav Dehlaviy, fors shoiri Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy

5. “Mahbub ul-qulub” qanday asar?

J:Axloqiy-falsafiy yo'sindagi pandnoma yoki nasihatnoma

6. “Mahbub ul-qulub” asarining mavzusi ?

J:Pand-nasihat, axloqiy qarashlar bosh mavzu bo'lib, bevositato'g'ridan to'g'ri ifoda etiladi, ularga har tomonlama ta'rif berilib, axloqiy xulosalar chiqariladi

7. Navoiygacha yana kimlar xuddi shu janr va ko'rinishda asarlar yaratgan?

J:Yusuf xos Hojib “Qutadg'u bilig”, Sa'diy Sheroziy “Guliston” va “Bo'ston”, Jomiy “Bahoriston”

8. “Mahbu ul-qulub” asari qachon yozilgan va uning ma'nosi nima?

J:1500-yil, “Ko'ngillarning sevgani”

9. Gahi topdim falakdin notavonlig'
Gahi ko'rdum zamondin komronlig'
Base issig', sovug' ko'rdum zamonda,
Base achchiq, chuchuk totdim jahonda.
Yuqoridagi masnaviy "Mahbub ul -
qulub" asarining qaysi qismida
yozilgan?

J:Kirish qismida

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida
necha yillik umri davomida ko'rgan-
kechirganlarini aks ettirgan?

J: 60 Yillik

11."Mahbub ul-qulub" asari necha
qismga bo'linadi?

J: 3 qismga

12. Birinchi qism qanday mavzuda?

**J:Har xil odamlarning fe'l-atvori va
ahvoli haqida**

13. Ikkinchi qismda nimalar
ifodalangan?

**J:Yaxshi fe'l xosiyati va yomon
xislat kasofati**

14. Uchinchi qism –chi?

**J:Turli foydali kuzatishlar va
misollar**

15. "Mahbub ul-qulub" asarida
sahovat va himmat nimaga
o'xshatilgan?

**J: Insoniyat bog'ining hosildor
daraxti va daraxtning foydali
mevasiga**

16. Oliyhimmat kishilar nimaga
o'xshatilgan?

J:Balandparvoz lochinga

17. Behimmat kishilar nimaga
o'xshatilgan?

J:Sichqon ovlochi kalxatga

18. Devona deb kimlarni atashgan?

J:Halol molni kuydirganlarni

19. Kimlarni aqldan begona deyilgan?

J:Yorug' joyda sham yoqqanni

16. Sahiy kim?

**J:Bitta kulchani ikki bo'lib,
yarmini och odamga bergan kishi**

17. Axiy kim?

**J:Kulchanning hammasini muhtoj
odamga bergan kishi**

18. Sahovat nima?

**J:Zarur vaqtida berilgan eski
chopon va bo'z to'n**

19. Hilm nima?

J:Muloyim tabiatlik

20. Issiq-sovuqda jonga orom
beruvchi nima?

J:Safar

21. "Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz"
hikmatli so'zi "Mahbub ul-qulub"ning
nechanchi tanbihi?

J:48 tanbih

22.Hikmatli so'z nima?

**J:Chuqur va o'tkir mazmunli,
qisqa, aniq va lo'nda ibora, bayt,
jumla hikmatli so'zdir**

23. Yana qanday nom bilan
yuritiladi?

J:Aforizm

24. Hikmatli so'zning xalq
maqollaridan farqi nimada?

**J:Hikmatli so'zlarning muallifi aniq,
qaysi manbadan kelib chiqqani,
kim tomonidan aytilgani ma'lum
bo'ladi.**

25. Hikmatli soʻzlar qanday asarlar tarkibida uchraydi?

J: Ilmiy, falsafiy, tarixiy va badiiy asarlar

26. Hikmatli soʻzlar qanday shaklda boʻladi?

J: Tarbiyaviy yoʻsindagi pand-nasihati, oʻgʻit, tanbeh shaklida

27. Qaysi asarlarda hikmatli soʻzlardan foydalangan?

J: Saʻdiy Sheroziyning “Boʻston” va “Guliston”, Nosir Xusravning “Sadoqatnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” va “Nazm-ul javohir”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarida

28. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qoʻllangan hikmatli soʻzlarni ayting.

J: Saxovatsiz kishi- yogʻinsiz abri bahor, Koʻp degan koʻp yengilur, Koʻp yegan, koʻp yiqilur, vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq, tilga ixtiyorsiz, elga eʻtiborsiz, har kimki soʻzi yolgʻon, yolgʻon zohir boʻlgʻon, Chin soʻz moʻtabar, yaxshi soʻz muxtasar, Oshning tami tuz bilan, Oz-oz oʻrganib dono boʻlur, Bilmaganin soʻrab oʻrgangan olim, orlanib soʻramagan oʻziga zolim va boshqalar.

MUHAMMADSHARIF GULXANIY

1. Gulxaniy qaysi yillarda yashagan?

J: XVIII asr oxiri-XIX asrning 20-yillarida

2. Qayerda yashagan?

J: Qoʻqon va Namanganda

3. Nima uchun Gulxaniy taxallusini qoʻllagan?

J: Joʻshqin feʻlligi va olovqalbligi tufayli

4. Yana qanday taxallus bilan ijod qilgan?

J: Jurʻat

5. Bizga qanday asarlari yetib kelgan?

J: 12 ta gʻzal, 1 ta qasida, “Zarbulmasal” asari

6. Gulxaniyning qasidasi kimga bagʻishlangan?

J: Qoʻqon xoni Amir Umarxonga

7. Qachon Qoʻqon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmat qilgan?

J: 1801-1810-yillar

8. Qoʻqon xoni Amir Olimxon vafotidan keyin taxtga kim oʻtiradi?

J: Amir Umarxon

9. Amir Umarxon qanday taxallus bilan ijod qilgan?

J: Amiriy

10. Gulxaniy ijodining boshqa shoirlar ijodidan farqi nimada?

J: U koʻproq oddiy insonlarga manzur boʻladigan sheʻrlar va hajviy asarlar bitgan.

11. Qaysi gʻazallarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari taʼsirli ifoda etilgan?

J: “Barmogʻim”, “Ey, toʻti”, “Lola koʻksidek bagʻrim...”

12. Qaysi g'azalida navkarlik davridagi og'ir hayoti tasvirlangan?

J:“Bideh” (bergil menga)

13. Qaysi g'azalida katta ijtimoiy masalalarni -o'z davrining harbiy tartibi, rasm-rusumlari , navkarlar hayotini ta'sirli misralarda bayon qilgan?

J:“Bideh” g'azalida

14. Qaysi g'azalidagi lirik qahramon umumlashma obraz darajasiga ko'tarilgan?

J:“Bideh”

15. Gulxaniyga qaysi asari katta shuhrat keltirgan?

J:“Zarbulmasal”asari

16.”Zarbulmasal” asari qanday asar?

J:O'sha davr voqealarini badiiy ifoda etgan tanqidiy-hajviy yo'nalishdagi asar

17.“Zarbulmasal “ qanday so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan va ma'nosi nima?

J:Arabcha zarb va masal so'zlari, “masallar yig'indisi”ma'nosini bildiradi

18. Masal so'zi o'tmishda qanday ma'noda ishlatilgan?

J:Bir vaqtlar biz hozirda qo'llaydigan maqol qo'shib gapirish, o'xshatishlar qilish, dalil keltirish ma'nolarini anglatadi.

19.Zarbulmasal bo'lish nima degani?

J: El og'ziga tushish, afsona bo'lish, mashhur bo'lish ma'nolarini ham anglatadi.

20. “Zarbulmasal” asarining tarkibi nimalardan iborat?

J:400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik masal va hikoyat

21. “Zarbulmasal” asarida kimlarning asarlaridan foydalanilgan?

J:Hind eposi “Kalila va Dimna”, Jomiyning “Silsilat uz-zahab”, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dahlaviy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor asarlaridan

22. “Zarbulmasal” asari xalq orasida qanday nom bilan mashhur bo'lgan?

J:“Yapaloqqush hikoyasi” nomi bilan

23. Darslikda “Zarbulmasal”dagi qaysi hikoyatlar berilgan?

J:“Kabutar bilan Zog”, “Maymun bilan Najjor”, “Tuya bilan Bo'taloq”, “Toshbaqa bilan chayon”, “Yodgor Po'stindo'z”

24. “Maymun bilan Najjor” hikoyatida qanday g'oya ilgari surilgan?

J:Qo'lidan kelmagan ishga qo'l urmaslik g'oyasi

25. “Toshbaqa bilan chayon” qanday fikr ilgari surilgan?

J:Do'st tanlashda adashmaslik

26. “Tuya bilan bo'taloq” hikoyati mavzusi nima?

J:Erki o'zida bo'lmagan kishi fojiasi

27. “Maymun bilan Najjor ” hikoyatidagi voqealar qayerda bo'lib o'tadi?

J:Kashmirda

28. Kashmir qayerda joylashgan?
J:Shimoliy Hindistondagi voha va shahar

29. “Tuya bilan bo’taloq” hikoyatidagi tuya yetaklovchi qayerlik edi?
J:Farg’onalik

30. Sangpusht nima? **J:Toshbaqa**

31. “Toshbaqa bilan chayon” hikoyatida toshbaqa qayerga ketayotgan edi?
J: Iroqdan Hijozga

32.“Yodgor Po’stindo’z” hikoyatida qaysi payg’ambar va tarixiy shaxslar nomlari keltirilgan?
J:Nuh payg’ambar, Ibrohim alayhissalom, Ahmad Yassaviy, Qul Muhammad Bahodirdin

33.”Zarbulmasal” asarida podshoh yonidagi odamlar qanday bo’lishini kim aytadi?
J:Ko’rqush

34.Ko’rqushning aytishicha, podshoh yonidagi uch toifa odamlar qanday bo’lishi kerak?
**J: 1) ilmga amal qiladigan olim-podshoh oxirati uchun zarur amallar taraddudida bo’lsa;
2) aql va tadbir egasi- podshohning dunyolik taraddudini ko’rsa;
3) haqiqatni yozadigan kotib, nazorat qiluvchi.**

MASAL HAQIDA TUSHUNCHA

1. Masal so’zi qanday ma’noni anglatadi?
J: Arab tilida namuna, misol degan ma’noni anglatadi.

2. Masal qanday janr?
J:Didaktik, ya’ni axloqiy-ta’limiy adabiy janr

3. Masal janridagi asarlar qanday shaklda bitiladi?
J:She’riy yoki nasriy shaklda

4. Masal janri nima uchun majoziy janr hisoblanadi?
J:Masal ko’chma ma’nodagi asar hisoblanib, unda jamiyat, insonlar hayotidagi voqealar, ular o’rtasidagi munosabatlar hayvonlar, qushlar, buyumlar, o’simliklar vositasida tasvirlanadi.

5. Masal janrining mukammal namunalarini kimning asarida uchratamiz?
J:Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Ezop ijodida

6. Kimlar o’z asarlarida masaldan unumli foydalanganlar?
J:Farididdin Attor, Navoiy

7. Jahon adabiyotida kimlar masalning ajoyib namunalarini yaratganlar?
J:Lope de Vega, I. Krilov, S. Marshak, S. Mixalkov

8. O’zbek adabiyotida masal janrida kimlar ijod qilib kelmoqdalar?
J:Sami Abduqahhor, Olim qo’chqorbekov, Muxtor Xudoyqulov, Yamin Qurbon.

AVAZ O’TAR

1. Avaz O’tar qaysi yillarda yashagan?
J:1884-1919-yillar

2. Avaz O'tar qanday ruhdagi asarlari bilan adabiyotimizda alohida o'rin tutadi?

J:Ma'rifatparvarlik ruhidagi

3. Avaz O'tar qayerda qanday oilada tug'ilgan?

J:Xiva shahrida hunarmand oilada

4. Avaz O'tarning otasi kim?

J:Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li sarta-rosha edi, xalq orasida usta O'tar nomi bilan mashhur bo'lgan.

5. Avaz O'tarning otasi kimlar bilan doimiy muloqotda bo'lgan?

J:Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mujrib Xonaxarobiy, Bayoniy

6. Avaz O'tar necha yoshda maktabga boradi?

J: 8 yoshda

7. Kimlarning ijodini qiziqib o'rgandi?

J:Xo'ja Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy

8. Kimlar bilan yaqin muloqatda bo'lgan?

J:Munis, Ogahiy, Komil, Feruz

9. Avaz O'tar Necha yoshidan she'r yoza boshlagan?

J:14 yoshidan she'r yozgan, 18 yoshida yetuk shoir nomini olgan

10. Qaysi xonliklar davrida yashagan?

J:Muhammad Rahimxon II va Isfandiyorxon

11. Xiva xonligidagi saroy muhiti qanday edi?

J:Avvalo, saroydagi biqiq ijodiy muhit unga yoqmaydi, unga hasad qiluvchilar orqali 200 darra urib jazolashadi, keying tazyiqlar natijasida yana 50 darra urib jazolanadi. Ma'nayiy va jismoniy qiynoqlarda azob chekkan shoir 35 yoshida vafot etadi.

12. Avaz O'tar mumtoz adabiyotning qaysi janrlarida ijodi qilgan?

J:G'azal, muxammas, masnaviy, mustazod, ruboiy, qit'a

13. Qanday devoni bor?

J:"Saodatul- iqbol"

14. Avaz O'tar qanday mavzularda qalam tebratgan?

J:Muhabbat va ma'rifatparvarlik

15. "Til" she'ri qanday janrda bitilgan?

J:G'azal

16. "Til" she'rida qanday g'oya ilgari suriladi?

J:Ma'rifatparvarlik ruhida bo'lib, til o'rganishga, ayniqsa, boshqa tillarni bilishga

17. Avaz O'tar tilni nima deb ataydi?

J:"Robitai olamiyon", ya'ni kishilarning aloqa vositasi

18. Avaz O'tar qayerni "Ilm madaniyat manbayi" deb ataydi?

J:"Maktab" she'rida -maktabni

19. Qaysi she'rida mazlum xalq ahvoliga achinish, uning mashaqqatli hayotidan cheksiz afsuslanishi yaqqol sezilib turadi?

J:"Fidoyi xalqim" she'rida

20. Avaz O'tarni ma'rifatparvarlik ruhidagi asrlari bilan mashhur qaysi shoirlar qatoriga qo'shaish mumkin?

J:Muqimiy,Furqat, Zavqiy, Hamza

ABAY

1.Abay Qo'nonboyev kim?

J:Qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri, buyuk shoir va ma'rifatparvar

2.Abayning asli ismi nima?

J:Ibrohim

3. Qachon va qayerda tug'ilgan?

J:1845-yil 10-avgustda Qozog'istonning Yettisuv viloyati Chingiztog tumanida

4. Chingiztog' tumani hozirgi kunda qanday nomlanadi?

J:Abay deb nomlangan

5. Qanday oilada tug'ilgan?

J:Chorvador boy oilasida tug'ilgan

6. Boshlang'ich ta'limni qayerda olgan?

J:Avval Yettisuvdagi Ahmad Rizo madrasasida, keyinchalik rus maktabida

7. Kimlarning ijodidan bahramand bo'lgan?

J:Sharq allomalari- Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy va rus adabiyoti vakillari ijodidan

8. Abay ijodini nimadan boshlagan?

J:She'r yozish va o'lan aytish, shuningdek, og'zaki kuylangan o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan.

9. U bastalagan nechta o'lan oqinlar tomonidan kuylanib kelinmoqda?

J: 17 ta

10. Abay she'rlarida, asosan, nimalarni ifodalagan?

J: Tarqoq qozoq qabilalarini birlashishga, hamjihatlikka chaqirdi, ilmi va ma'rifatli bo'lishga undadi.

11. Qaysi she'rlarida ilg'or mamlakatlardan o'rnak olish, qoloqlikdan chiqish, chidam va mashaqqat bilan ilm-fanni egallashga da'vat yaqqol sezilib turadi?

J:"Sho'rlik qozog'im", "Boy bolasi bilan kambag'al bolasi", "Ilm o'rgan", "O'lan"

12. Qaysi dostonlari hozirgacha el orasida mashhur?

J:"Iskandar", "Mas'ud", "Azim rivoyati"

13. Abay asarlarini kimlar o'zbek tiliga tarjima qilgan?

J:Mirtemir va Uyg'un

14. Abay ijodida alohida o'rin tutadigan asari qaysi?

J:"Naqliya so'zlar" majmuasi

15. Shoir bu asarda nimalar haqida mulohaza yuritadi?

J:Inson hayotida muhim o'rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof va adolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e'tiqod, davlatni idora qilish, xalqlar, elatlarning ahil, do'stona munosabatda bo'lishlari haqida

16. Asar necha bo'limdan iborat?

J: 44 bo'lim

17. Asar o'zbek tilida qanday nom bilan mashhur bo'lgan?

J: "Nasihatlar"

34. Asarni kim tarjima qilgan?

J: Nosir Fozilov

35. "Har qanday yalqov kishi qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi". Ushbu parcha "Nasihatlar" kitobining nechanchi so'zidan olingan?

J: Uchinchi so'zidan

36. "Nasihatlar" kitobida yozilishicha, bola tug'ilganda ikki odati bilan tug'iladi. Bular qaysilar?

J: Biri: yesam, ichsam, uxlasam, ikkinchisi: ko'rsam, bilsam

37. "Nasihatlar" kitobining "O'n yettinchi so'z" da nimalar bahslashadi?

J: G'ayrat, aql, yurak

38. G'ayrat, aql, yurak bahslashishganda ularga kim hakamlik qiladi?

J: Aql

39. "O'ttiz birinchi so'z" da aytilishicha, kishi eshitgan narsasini unutmashligi uchun to'rtta shart borligi aytilgan. Bular qaysilar?

J: Zehnli bo'lmoq, Ko'rgan va eshitgan narsasiga ixlos qo'yib, uqib olmoq, eshitganlarini takrorlamoq, ko'ngliga boshqa narsalarni keltirmaslik

40. "Nasihatlar" kitobining o'ttiz ikkinchi so'zida ilm o'rganishning nechta sharti bayon qilinadi?

J: 6 ta

41. "O'ttiz yettinchi so'z" da Abayning nechta nasihati o'rin olgan?

J: 20 ta

42. "Yomon do'st- bir ko'lankadir: quyoshli kunda qochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda izlasang ham topolmaysan". Ushbu parcha "Nasihatlar" kitobining nechanchi so'zidan o'rin olgan?

J: 37 so'zi

43. "G'ayratsiz jahl, qayg'usiz oshiq va shogirdsiz olim nimaga o'xshatiladi?"

J: Tulga

44. "Nasihatlar" kitobining 32-qismi nima haqida?

J: Ilm o'rganishning shartlari haqida

ZULFIYA

1. "Uning jahon minbarlaridan yangragan sh'eriari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab sh'eriyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan". Ushbu ta'rif kim haqida?

J: I.A. Karimov Zulfiya haqida

2. Zulfiya Isroilova nechanchi yillarda yashagan?

J: 1915-1996-yillar

3. Zulfiya qanday mukofotlar sohibasi?

J: O'zbekiston xalq shoirasi, xalqaro "Nilufar", "Javohirlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari

4. Qayerda va qanday oilada tug'ilgan?

J:Toshkent shahrining Degrez mahallasida

5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti aspiranturasida qachon o'qigan?

J:1935-1938-yillarda

6. 1953-1980-yillarda qaysi jurnalda bosh muharrir vazifasini bajargan?

J:"Saodat" nomli xotin-qizlar jurnali

7. Dastlabki she'rlari qachon, qanday nom bilan bosilib chiqqan?

J:1932-yil "Hayot varaqlari" nomi bilan

8. Qanday she'riy to'plamlari bor?

J: Dalada bir kun", "Tong qo'shig'i", "Yuragimga yaqin kishilar", "Kuylarim sizga", "She'rlar", "qizlar qo'shig'i", "Uni Farhod der edilar", "Hijron kunlarida", "O'ylar".

9. Zulfiyaning turmush o'rtog'i kim?

J:O'zbek shoiri Hamid Olimjon

10. Hamid Olimjon qachon vafot etgan? **J:1944-yilda**

11. Hamid Olimjonning qaysi dostonlari asosida pyesa va opera librettolarni yaratgan?

J:"Semurg' ", "Zaynab va Omon"

12. Zulfiyaning qanday poemalari bor?

J:"Quyoshli qalam", "mushoira", "xotira siniqlari"

13. Zulfiya qaysi xalq shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?

J:Rus, ukrain, hind.

14. Zulfiya jamoat arbobi sifatida qaysi davlatlarda bo'lgan?

J:Osiyo , Afrika , Yevropaning onlab davlatlarida

15. Shoiraning she'rlari qaysi xorijiy tillarga tarjima qilingan?

J:Ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vetnam

16. Zulfiya necha yoshida vafot etgan?

J:81 yoshda

17. Zulfiyaning "Nevara", "Bog'lar qiyg'os gulda" sh'rlari qaysi turkumga kirgan?

J:"Aziz tuyg'ular" turkumiga

18. Zulfiyaning "Nevara" she'ri kimga atalgan?

J:Nevarasi Ulug'bekka

19. "Bog'lar qiyg'os gulda" she'rida "shoir xayoliday latif,serhasham" deya qaysi daraxt tasvirlangan?

J:Majnunol

20. Zulfiya "Bog'lar qiyg'os gulda" she'rida "bir kaft bog'" deya nimani nazarda tutadi?

J:Vatanni

21. Bu-qadim dunyoda yangi bir olam,

Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q. Zulfiya "orqa tog'" –suyanch deb kimni nazarda tutadi?

J:O'zbek xalqini

22. Hayot kitobimni bexos varaqlab, Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim. Misralari qaysi she'ridan olingan?

J: "Men o'tgan umrga" she'ridan

PIRIMQUL QODIROV

1. Pirimqul Qodirov kim?

J: Zamonaviy o'zbek nasrining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zbekiston xalq yozuvchisi.

2. Pirimqul Qodirov qachon tug'ilgan?

J: 1928-yilning 25-oktabrida

3. Qayerda qanday oilada tug'iladi?

J: Xo'jand viloyati hududidagi Kengko'l qishlog'ida Cho'pon oilasida

4. Kolxozlashtirish davri qachon bo'lgan va bu adib hayotiga qanday ta'sir qilgan?

J: 1930-1933-yillar, adibning otasi Qodir cho'pon ham quloq qilinadi.

5. Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini qachon tamomladi?

J: 1951-yilda

6. Ustozi Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini qachon yoqlaydi?

J: 1954-yilda

7. Dastlabki kitobi qachon, qanday nom bilan e'lon qilindi?

J: 1951-yilda "Studentlar"

8. "Meros", "Qadrim", "Erk", "Yayra institutga kirmoqchi", "Najot" asarlari qaysi janrda yozilgan?

J: Qissa

9. Qaysi romanlari millionlab o'quvchilarini topdi?

J: "Uch ildiz", "Qora ko'zlar", "Olmos kamar", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni"

10. "Meros" qissasida qaysi kasb egalarning hayoti aks ettirilgan?

J: Paxtakorlar

11. Ziyolilar hayoti aks ettirilgan asari qaysi?

J: "Uch ildiz" romanida

12. "Qadrim" qissasi qahramonlari qaysi kasb egalari edi?

J: Neftkonlarini izlovchilar

13. Pirimqul Qodirovning tarixiy mavzudagi asarlari qaysilar?

J: "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" asarlari

14. "Avlodlar dovoni" asarining asosiy voqealari qayerda bo'lib o'tadi?

J: Hind mamlakatida

15. Romandagi qaysi to'qima obraz go'zal qiz Hamidabonuni sevar edi?

J: Nizom

16. Yana kim Hamidabonuga oshiq edi, "imtiyoz" kimda ko'proq edi?

J: Humoyun

17. Humoyunning chodiri turgan balandlikdan Gangaga kelib qo'shiladigan daryo qaysi?

J: Karamnasa

18. Nima uchun Karamnasa daryosi suvi uncha ko'p bo'lmaydigan bo'lsa ham vahimali tusga kirgan edi?

J: Yomg'ir fasli boshlanib, bo'tana sellarga to'lgan edi.

19. Hindlarda qanday e'tiqod bor edi?

J: Karamnasaning suvi tekkan odam bir umr toat-ibodatdan ayrilib, kasofatning tagida qolib ketarmish.

20. Hindlar Karamnasaning narigi qirg'og'iga o'tmoqchi bo'lsalar, irim qiladilar-uning o'zidan emas, Gangaga quyilgan joining naryog'idan kema bilan aylanib o'tadilar. Bu hodisa haqida kim o'z esdaliklarida yozib qoldirgan?

J: Z.M. Bobur.

21. Humoyun nima uchun otasining tajribasiga tayanib, uch tarafi daryo bilan to'silgan baland tepalikni qarorgoh qildi?

J: Beklarining aytishicha, faqat qarorgohning janubi-sharq tomoniga soqchilar qoyilsa, kechalari tinch uxlash mumkin.

22. Otasi bu yerni qarorgoh qilgandagi holat bilan hozirgi holat o'rtasida qanday farq bor?

J: Otasi bu yerni qarorgoh qilganda havo quruq, daryolarda suv oz, bu atrofda Sherxonday xatarli yov yo'q edi.

23. Qoshlari qalin, ko'zlari ko'kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan durkun gavidali, qarashlarida burgutni eslatadigan obraz kim?

J: Sherxon

24. Sherxon Humoyundan qaysi viloyatlarni so'raydi?

J: Chunor qal'asi va Bixar viloyatini

25. Humoyun Chunor qal'asini nima uchun bergisi kelmaydi?

J: Chunki bu qal'ani olguncha 6 oy jang qilgan.

26. Humoyun yonidagilar bilan maslahatlashib, Chunorni berishga rozi bo'ladi va sulh tuzish uchun Sherxonni yoniga kimlarni jo'natadi?

J: Bayramxon va Xo'ja Husaynni.

27. Pashkol so'zining ma'nosi nima?

J: Yomg'ir fasli

28. Bayramxon ana shu pashkol faslida nimani qo'msaydi?

J: Uyda yoki bog'da tinchgina o'tirib, kitob o'qishni va she'r yozishni.

29. Bayramxon nimani o'rtaga qoyib, Sherxon bilan sulh tuzmoqchi bo'ladi?

J: Qur'onni

30. Sherxon elchilarni kuzatib bo'lgach, huzuriga kimni chaqirtiradi?

J: Agradan kelgan Alvaro Pakavirani

31. Pakavira yo'llarda Humoyun qo'ygan odamlarning qo'liga tushmaslik uchun qanday qiyofada keladi?

J: Hind savdogari.

32."Mening dunyoda eng ishongan odamlarim-To'rtovlaring, senlar" , Sherxon ushbu so'zlarni kimlarga qarata aytadi?

J: O'g'illari: Qutbxon va Jalolxon, Rajputlar sarkardasi Bikramadit Gaur, lashkarboshisi Havasxonni

33.Humoyun daryoda uni qutqarayotgan Nizomga o'zini qutqarishini aytganda , Nizom unga qanday javob beradi?

J: - Yo'q, hazrat! Men sizning kemangizda xizmat qilib maosh olurman. Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergan noningiz harom bo'lg'ay. Men halol non yeb organganman.

34.Bhaqtiylar kimlar?

J: Adolatparvar xalq harakatining ishtirokchilari.

35.Ushbu asarda Sherxon qanday tasvirlangan?

J: O'qimishli, aqlli, tadbirkor, harbiy san'atni puxta egallagan shaxs.

TOG'AY MUROD

1.Tog'ay Murod qaysi yillarda yashagan?

J:1948-2003-yillarda

2. Tog'ay Murod qayerda tug'ilgan?

J:Denov tumaniga qarashli Xo'jasoat qishlog'ida

3. Qachon O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida ta'lim oldi?

J:1966-1972-yillarda

4.Ijodini qachondan boshlagan?

J:Talabalik yillarida

5. Tog'ay Murod qayerlarda ishlagan?

J:Respublika radiosining "Watandoshlar" tahririyatida, "O'zbekiston fizkulturachi" gazetasida, "Fan va turmush" jurnalida

6. Qachon Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil oldi?

J:1985-1987-yillar

7. Dastlabki yirik asari qaysi va u qachon chop etilgan?

J:"Yulduzlar mangu yonadi" qissasi 1976-yil

8."Yulduzlar mangu yonadi" qissasida qanday mavzi qalamga olingan?

J:Kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar

9.Yozuvchining qaysi qissasi "Yoshlik" jurnalida chop etilishi bilan xalqimiz orasida juda tez dovruq qozondi?

J:"Ot kishnagan oqshom" qissasi

10."Ot kishnagan oqshom" qissasi qachon yozilgan?

J:1979-yil

11.Ushbu asarning dovruq qozonishiga sabab nima edi?

J:Chunki bu asarda o'sha davr adabiyotida kamdan kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatiladigan "sovet kishisi" tabiatiga xos bo'lgan turfa illatlar badiiy jihatdan ta'sirchan va ishonarli tarzda ochib berilgan edi.

12. Mazkur asar sho'ro davri adabiyotidagi boshqa asarlardan nimasi bilan ajralib turar edi?

J:Asarning oxiri "umidbaxsh sadolar bilan" tugamasligi jihatidan farq qilar edi.

13. "Ot kishnagan oqshom" qissasining bosh qahramoni kim?

J:Ziyodulla chavondozi

14."Oydinda yurgan odamlar" asarining janri qanday?

J:Qissa

15."Oydinda yurgan odamlar" qissasining bosh qahramonlari kimlar?

J:Qoplonbek va Oymomo

16. Qoplonbek va Oymomoga umrining oxirigacha nima armon bo'lib qoladi?

J:Farzand ko'rish istagi

17. Ushbu qissada qanday tuyg'u tarannum etilgan?

J:Buyuk muhabbat tuyg'usi bilan bir-biriga mangu bog'langan bu go'zal insonlarning hayot yo'li oydinda aytilgan qo'shiqday tarannum etiladi.

18. Qaysi asar qahramoning ismi Aqrab burj nomi bilan atalgan?

J:"Otamdan qolgan dalalar" romani

19. "Otamdan qolgan dalalar" romani qachon yozilgan?

J:1993-yil

20. Ushbu asarda qaysi davr voqealari aks ettirilgan?

J:O'zbek xalqining Chor Rossiyasi va sho'ro bosqini ostida o'tgan hayotini- yuz yildan ortiqroq tarixni o'zida mujassam etgan.

21. Asarda bir oilaning uch avlodi hayoti misolida butun millatning taqdiri juda ta'sirchan bo'yoqlarda ifoda etiladi. Bu uch avlod kimlar?

J:Jamoliddin ketmon, Aqrab (Chayon), Dehqonqul

22. "Otamdan qolgan dalalar" asari uchun yozuvchi qanday mukofot olgan?

J:Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofoti.

23. Yozuvchiga qachon O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berilgan?

J: "Otamdan qolgan dalalar" romani e'lon qlingach.

24.Qaysi kinorejissor Ushbu asar asosida ikki qismli badiiy film suratga olgan?

J:Shuhrat Abbosov

25.Tog'ay Murod asarlaridagi qahramonlar kimlar?

J:Oddiy, ya'ni siz bilan biz deyarli har kuni ko'cha –kuyda uchratadigan, ko'pincha ahamiyat ham bermaydigan kishilar.

26.Tog'ay Murod qahramonlari bilan bizni yaqinlashtiradigan narsa nima?

J:Xalqimizga xos bo'lgan soddalik, samimiylilik, to'g'riso'zlik, ochiqko'ngillik xislatlari

27."Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf-odatlari bilan xalq! Ko'p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik". Ushbu o'ylar "Yulduzlar mangu yonadi" qissasining qaysi qahramoniga tegishli?

J:Bo'ri polvonga

28.Bo'ri polvonning o'g'li kim?

J:Tilovberdi

29."Biz polvonlik maktabida o'qimadik. Polvonlk bizga ota meros. Pushtdan pushtga , qondan qonga o'tib kelyapti". Ushbu o'ylar kimga tegishli?

J:Bo'ri polvonga

30.Bo'ri polvon bilan kurashib, uning yelkasini yerga tekkizgan polvon kim?

J:Ismoil o'tli yosh polvon

31.Bo'ri polvonning nechta qiz farzandi bor edi?

J: 5 ta

32. Tilovberdi bilan kim kurash tushadi?

J:Abay polvon

33.Abray polvon kimning o'g'li?

J:Sho'rchilik Nasim polvonning o'g'li

34. Tog'ay Murod kimning asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan?

J: Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" asarini

35. Tog'ay Murod necha yoshida vafot etgan?

J: 55 yoshida

IBROYIM YUSUPOV

1. Ibroyim Yusupov kim?

J:O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri.

2. Ibroyim Yusupov qachon tug'ilgan?

J:1929-yilning 5-mayida

3.Shoir qayerda tug'ilgan?

J:Qoraqalpog'istonning Chimboy tumani hududidagi Azot ovulida

4.Qoraqalpog'iston pedagogika institutini qachon tamomlagan?

J:1949-yil

5. Nechanchi yilgacha mazkur institutda til va adabiyot ilmidan saboq beradi?

J:1961-yilgacha

6. 1961-1962-yillarda qayerda ishlagan?

J:Qoraqalpog'istonning adabiy nashri bo'lmish "Amudaryo" jurnalining bosh muharriri vazifasini bajaradi.

7.Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasida nechanchi yillari raislik qilgan?

J: 1965-1980-yillar

8.Ibroyim Yusupovning dastlabki she'rlari qachon e'lon qilingan?

J:O'tgan asrning 40-yillari o'rtalaridan – institutda o'qib yurgan kezlarda

9. Shoirning qancha she'riy to'plamlari o'quvchilar qo'lga yetib borgan?

J: 30 dan ortiq

10.Qaysi she'rlari va dostonlari qoraqalpoq adabiyotining salmoqli yutuqlari bo'lib qoldi?

J:"Kun chiqish yo'lovchisiga", "Qoraqalpoqni ko'p maqtamang ko'zimcha", "Qora tol", "Turnalar", "Mening yigit vaqtim..." she'rlari, "Akatsiya gullagan joyda", "Gilamchi xotin haqida haqiqat", "Dala armonlari", "Mangu buloq" dostonlari

11. Qoraqalpoq milliy dramaturgiya va sahna san'ati rivojiga hissa qo'shgan dramalari qaysilar?

J: "Qirq qiz", "Aktrisaning iqboli", "Umirmek laqqi" dramalari

12. Qaysi librettosi uzoq yillar davomida tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan?

J: "Ajiniyoz" librettosi

13. Uning tarjimalari qachon qanday nom bilan chop etilgan?

J: "Mangu buloqlar" 1986-yil

14. Ibroyim Yusupovning qaysi kitoblari o'zbek tilida nashr etilgan?

J: "Buloqlar qaynaydi", "Oltin qirg'oq", "Dala armonlari", "Cho'l to'rg'ayi", "Qora tol" kitoblari

15. Ibroyim Yusupov qachon Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofoti sohibi bo'lgan?

J: 1974-yil

16. Ibroyim Yusupov 2004-yilda qanday unvonga sazovor bo'ldi?

J: "O'zbekiston Qahramoni" unvoni

17. Ibroyim Yusupov qachon necha yoshida vafot etdi?

J: 2008-yil, 79 yoshida

18. Shoirning qaysi she'rida "Har kimning tug'ilgan yeri- Misr shahri" jumlasini epigraf qilib olingan?

J: "Qadr don so'qmoqlar" she'riga

19. "Qadr don so'qmoqlar" she'rida shoirning ovulida tol bilan shivirlashib o'sadigan o'simlik qaysi?

J: Qizil kendir - xalq tilida qizilquray deyiladi.

20. Bir paytlar yashnab turgan terakning oxir-oqibat yog'ochga - narvonga aylanishi nimadan ogoh etadi?

J: Umrning o'tkinchiligidan, hech narsa boqiy yashamasligidan

21. Qo'sh terak nimaning ramzi?

J: Ota-onaning umri.

22. 6-adabiyot darsligining mualliflari kimlar?

J: Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov, Shuhrat Rizayev.

XULOSA

Har bir dars o'quvchidan mustaqil ishlashni, o'tilayotgan har bir mavzuni mukammal bilishni talab qiladi. O'quvchilar dars davomida olgan bilimlarini xotiralarida mustahkam saqlab qolishi uchun darsliklarni ko'proq o'qishlarini talab qiladi.

Qo'lingizdagi ushbu savol-javob to'plami orqali o'quvchilar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni bilib oladilar. Shoir va yozuvchilar hayotiga doir ma'lumotlar, asarlaridan parchalar va nazariy ma'lumotlar har bir adabiyot darsligida mavjud. Shunday ekan, bu ma'lumotlarni mukammal o'rganish lozim. Adabiyot darslarida o'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob o'tkaziladi. Bu esa o'quvchilarning xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu savol-javob to'plamidagi ma'lumotlar orqali o'quvchilar o'zlari e'tibor bermagan narsalarni bilib olishlari mumkin. Ushbu savol-javob to'plami ham barcha o'quvchilar va ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga qo'llanma sifatida berildi. Ushbu savol-javob to'plami hozirgi kunda amalda qo'llanilayotgan darslik asosida tuzilgan.

